



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875


9 772181 687004

12(1)/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



12(1)/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 12, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navroz-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

SERIYA: M A T E M A T I K A

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
MATEMATIKA *** MATHEMATICS *** MATEMATIKA		
Abdullayev S.A.	3x3 matritsaning sonli tasviri	3
Abdullayev S.A.	Blok operatorli matritsalarining sonli obrazlari	8
Muxtorova Sh.N.	Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonning ta'rif va talqini	12
Omonov O.I., Shog'dorova Q.S.	Qatorlarning yaqinlashishini tahlil qilishda D'Alamber alomati va unga o'xshash alomatlar	17
Utayev A.T.	Ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan V – tartibli bistoxastik operatorlar oilasi dinamikasi	24
Мамедов К.А., Жуманиязов Н., Азаматов А.Ш.	Интегрирование уравнения мКдФ с самосогласованным источником в классе функций конечной плотности в случае простых собственных значений	29
Арзикулов З.О., Абдужабборов А.А.	Автомодельные решения вырождающегося дифференциального уравнения в частных производных третьего порядка с четырьмя переменными	40
Жабборов Н.М., Хусенов Б.Э., Бобохонов Ш.С.	Автоморфизмы и лемниската	52
Бойназаров А.Н.	Решение нелинейных обыкновенных дифференциальных уравнений с квадратом оператора Бесселя	61
Сулаймонов Ф.У., Эшдавлатов З.З., Холбоева Х.Ф.	Численное решение задачи аномального переноса вещества в трещиновато-пористой среде	68
Omonova A.N.	Initial-boundary value problem for a degenerate second order equation with fractional Caputo derivative and Riemann-Liouville integral	74
Axmedov S.A., Ablazova K.S., Dexqonboyeva S.A.	Jarayonlar stabilligini nazorat qilishning uch komponentli tizimi	83
Baratov B.S.	On dynamics of a separable cubic stochastic operators in S^2	88
Elmuradova Kh.B.	An inverse problem of determining the kernel pseudo-integro-differential equation	94

G'iyosova F.U.	Kasr tartibli to'liqin tarqalish tenglamasi uchun aralash masala	107
Akilov J.A., Djabbarov M.S., G'aybulov Y.Sh.	Neft quduqlarini shtangli nasoslar yordamida ishlatishda gidrodinamik bosim	112
Ishankulov T., Umarov S.S.	Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasining Karleman funksiyasi	120
Kuldoshova M.J.	The controlling problem for the heat exchange equation in an inhomogenous rod	125
Muradov R.S.	Noinformativ kuzatuvlar statistik modeli uchun Kramér–Rao bahosining yangi isboti	129
Sulaymonov I.A.	Fractional parabolic systems of vector order with Riemann-Liouville fractional derivative	134
Xolliyev F.B.	Fraktal tuzilishga ega bo'lgan g'ovak muhitlarda anomal modda ko'chishi masalasidagi hosila tartibini tiklash	141
Даминова М.С., Шодиева С.Р., Абдижабборов М.А.	Нелокальная задача с интегральным условием склейки для нагруженного уравнения смешанного типа с дробной производной Капуто	148
Зокиров М.С.	Численное моделирование процессов плоскорадиальной фильтрации с дробными производными	155
Ikromova D.I., Xudoyberdiyev D.G'.	X_9 tipidagi maxsuslikka ega bo'lgan sirtlarda mujassamlashgan o'lchovlar Furiye almashtirishining aniq L^p bahosi	162
Джамалов С.З., Халхаджаев Б.Б.	Линейная обратная задача для уравнения смешанного типа второго рода четвёртого порядка	168
Исломов Б.И., Абсоатова Х.Г.	Краевая задача для нагруженного уравнения смешанного типа дробного порядка со спектральным параметром	178
Tursunov I.E.	Ko'p o'zgaruvchili funksiya karrali va takroriy limitlarining o'zaro munosabatlari	184
Хасанов И.И.	Задача нахождения коэффициента при нулевом порядке в одном дифференциальном уравнении с дробной производной	190
Jumaev J.J.	Investigation of direct and inverse problems for a semilinear diffusion equation with initial–boundary and overdetermination conditions	200
Babaev S.S.	General algorithm for constructing a weighted optimal quadrature formula in Hilbert space	209

3x3 MATRITSANING SONLI TASVIRI

*Abdullayev Sarvar Anvar o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada 3×3 o‘lchamli o‘z-o‘ziga qo‘shma sonli matritsaning sonli tasviri, uning xos qiymatlari va sonli tasvir bilan spektr orasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Matritsaning sonli tasviri uchun umumiy teoremlar isbotlangan hamda ayrim maxsus holatlar uchun lemma va misollar orqali aniq ifodalar keltirilgan. Natijalar orqali sonli matritsalar spektrining joylashuv oralig‘i va ularning sonli tasviri orasidagi uzviylik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sonli tasvir, xos qiymat, spektr, chiziqli operator, o‘z-o‘ziga qo‘shma matritsa, Gilbert fazosi, rezolventa.

ЧИСЛОВОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ МАТРИЦЫ РАЗМЕРА 3×3

Аннотация. В данной статье исследуется числовое изображение самосопряжённой числовой матрицы размера 3×3 , её собственные значения и взаимосвязь между спектром и числовым образом. Приведены и доказаны основные теоремы и леммы, а также рассмотрены конкретные примеры для специальных случаев. Полученные результаты позволяют определить взаимосвязь между спектром матрицы и интервалом её числового образа.

Ключевые слова: числовое изображение, собственные значения, спектр, линейный оператор, самосопряжённая матрица, гильбертово пространство, резольвента.

NUMERICAL RANGE OF A 3×3 MATRIX

Abstract. This article examines the numerical range of a 3×3 self-adjoint complex matrix, its eigenvalues, and the relationship between the numerical range and the spectrum. General theorems for the numerical range of a matrix are proven, and precise expressions for some special cases are provided through lemmas and examples. The results are used to analyze the connection between the location interval of the spectrum of numerical matrices and their numerical range.

Keywords: numerical range, eigenvalue, spectrum, linear operator, self-adjoint matrix, Hilbert space, resolvent.

Kirish. H Gilbert fazosi va $A: H \rightarrow H$ aniqlanish sohasi $D(A) \subset H$ bo‘lgan chiziqli operator bo‘lsin.

Ushbu

$$W(A) := \{(Ax, x) : x \in D(A), \|x\| = 1\}$$

to‘plamga A operatorning sonli tasviri deyiladi. Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, $W(A)$ to‘plam kompleks sonlar tekisligining qismi bo‘ladi va $W(A)$ to‘plamning geometrik xossalari A operator haqida bir qancha ma’lumotlarni tavsiflaydi.

Gilbert fazosidagi chiziqli operatorning sonli tasvirni o‘rganish bunday operatorlar spektrining joylashuv o‘rnini o‘rganishdagi muhim usullardan biri hisoblanadi.

Matritsaning sonli tasviri uning barcha xos qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Faraz qilaylik, C kompleks sonlar to‘plami bo‘lsin. C^3 fazoda ushbu

$$M = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & 0 \\ \bar{a}_{12} & a_{22} & a_{23} \\ 0 & \bar{a}_{23} & a_{33} \end{pmatrix}$$

ko‘rinishidagi sonli matritsani qaraymiz, bu yerda a_{ii} , $i = 1, 2, 3$ lar ixtiyoriy haqiqiy sonlar, a_{ij} , $i < j$, $i, j = 1, 2, 3$ lar esa ixtiyoriy kompleks sonlar.

M matritsaning elementlariga qo‘yilgan bunday shartlarda bu matritsa C^3 dagi chiziqli chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lgan operatorni ifodalaydi. Shu sababli uning barcha xos qiymatlari haqiqiydir.

1-lemma. M matritsaning sonli tasviri uchun ushbu

$$W(M) = [\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}]$$

tenglik o'rinlidir, bu yerda $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ sonlari M matritsaning xos qiymatlaridir.

Isbot. Faraz qilaylik, M matritsa $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ xos qiymatlarga ega bo'lsin. M matritsaning $\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}$ xos qiymatiga mos keluvchi birlik xos vektorlarni X bilan, $\max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}$ xos qiymatiga mos keluvchi birlik xos vektorlarni Y bilan belgilaymiz, u holda

$$(MX, X) = \min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \quad (MY, Y) = \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}$$

$\|x\| = 1, \|y\| = 1$ munosabatlar o'rinlidir.

Ko'rinib turibdiki, (Mz, z) kvadratik formaning $\|z\| = 1$ birlik sfera bo'yicha eng kichik qiymati X da, eng katta qiymati esa Y erishiladi. Demak,

$$W(M) = [\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}]$$

1-lemma isbot bo'ldi.

2-lemma. Agar $a_{12} = a_{23} = 0$ bo'lsa, u holda

$$W(M) = [\min\{a_{11}, a_{22}, a_{33}\}, \max\{a_{11}, a_{22}, a_{33}\}]$$

tenglik o'rinlidir.

Isbot. Faraz qilaylik, $a_{12} = a_{23} = 0$ bo'lsin, u holda

$$M = \begin{pmatrix} a_{11} & 0 & 0 \\ 0 & a_{22} & 0 \\ 0 & 0 & a_{33} \end{pmatrix}.$$

M matritsaning xos qiymatlari

$$(a_{11} - \lambda)(a_{22} - \lambda)(a_{33} - \lambda) = 0$$

xarakteristik tenglamaning nollari bo'ladi. Bundan esa M matritsaning xos qiymatlari $\lambda_1 = a_{11}, \lambda_2 = a_{22}, \lambda_3 = a_{33}$ ekanligi kelib chiqadi. 1-lemmaga ko'ra,

$$W(M) = [\min\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}, \max\{\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3\}]$$

3-lemma. Agar $a_{12} = 0$ bo'lsa, u holda

$$W(M) = [\min\{a_{11}, \lambda_-\}, \max\{a_{11}, \lambda_+\}]$$

tenglik o'rinlidir, bu yerda

$$\lambda_{\pm} = \frac{a_{22} + a_{33} \pm \sqrt{(a_{22} - a_{33})^2 + 4|a_{23}|^2}}{2}$$

Isbot. Faraz qilaylik, $a_{12} = 0$ bo'lsin, u holda

$$M = \begin{pmatrix} a_{11} & 0 & 0 \\ 0 & a_{22} & a_{23} \\ 0 & \bar{a}_{23} & a_{33} \end{pmatrix}$$

M matritsaning xarakteristik tenglamasi esa

$$(a_{11} - \lambda)(a_{22} - \lambda)(a_{33} - \lambda) - |a_{23}|^2(a_{11} - \lambda) = 0 \quad (1)$$

bo'ladi.

$$(a_{11} - \lambda)((a_{22} - \lambda)(a_{33} - \lambda) - |a_{23}|^2) = 0$$

Bizga ma'lumki, xarakteristik tenglamaning yechimlari M matritsaning xos qiymatlaridir. (1)-tenglamani yechish $a_{11} - \lambda = 0$ va $\lambda^2 - (a_{22} + a_{33})\lambda - |a_{23}|^2 = 0$ tenglamani yechishga keladi.

Bundan esa,

$$\lambda_1 = a_{11}, \quad \lambda_{2,3} = \frac{a_{22} + a_{33} \pm \sqrt{(a_{22} - a_{33})^2 + 4|a_{23}|^2}}{2}.$$

Quyidagicha

$$\lambda_{\pm} = \frac{a_{22} + a_{33} \pm \sqrt{(a_{22} - a_{33})^2 + 4|a_{23}|^2}}{2}$$

belgilash kiritaylik. 1-lemmaga ko'ra,

$$W(M) = [\min\{a_{11}, \lambda_-\}, \max\{a_{11}, \lambda_+\}]$$

4-lemma. Agar $a_{23} = 0$ bo'lsa, u holda

$$W(M) = [\min\{a_{33}, \mu_-\}, \max\{a_{33}, \mu_+\}]$$

tenglik o'rinlidir, bu yerda

$$\mu_{\pm} = \frac{a_{11} + a_{22} \pm \sqrt{(a_{11} - a_{22})^2 + 4|a_{12}|^2}}{2}.$$

1-Misol.

$$M = \begin{pmatrix} 1 & i & 0 \\ -i & 1 & 1+i \\ 0 & 1-i & 1 \end{pmatrix}$$

matritsaning sonli tasvirini toping.

Bu matritsa uchun

$$a_{11} = 1, a_{22} = 1, a_{33} = 1, a_{12} = i, a_{23} = 1+i, |a_{12}|^2 = 1, |a_{23}|^2 = 2$$

p_0, q_0 va φ_0 qiymatlarni topish formulalariga asosan

$$p_0 = -\frac{1}{6}\{(a_{11}-a_{22})^2 + (a_{11}-a_{33})^2 + (a_{22}-a_{33})^2\} - |a_{23}|^2 - |a_{12}|^2 =$$

$$-\frac{1}{6}\{(1-1)^2 + (1-1)^2 + (1-1)^2\} - 1 - 2 = -3$$

$$q_0 = a_{33}|a_{12}|^2 + a_{11}|a_{23}|^2 - a_{11}a_{22}a_{33} - \frac{2}{27}(a_{11} + a_{22} + a_{33})^3 +$$

$$+ \frac{1}{3}(a_{11}a_{22} + a_{11}a_{33} + a_{22}a_{33} - |a_{23}|^2 - |a_{12}|^2)(a_{11} + a_{22} + a_{33}) =$$

$$= \frac{1}{3}(1 \cdot 1 + 1 \cdot 1 + 1 \cdot 1 - 1 - 2)(1 + 1 + 1) + 1 \cdot 1 + 1 \cdot 2 - 1 \cdot 1 \cdot 1 -$$

$$-\frac{2}{27} \cdot 27 = -2 + 2 = 0$$

$$\varphi_0 = \arccos\left(-\frac{3q_0}{2p_0}\sqrt{-\frac{3}{p_0}}\right) = \arccos\left(-\frac{3 \cdot 0}{2 \cdot (-3)}\sqrt{-\frac{3}{(-3)}}\right) = \arccos 0 = \frac{\pi}{2}$$

ga teng.

U holda

$$\gamma_k = \frac{1}{3}(a_{11} + a_{22} + a_{33}) + 2\sqrt{-\frac{p_0}{3}}\cos\frac{\varphi_0 + 2(k-1)\pi}{3} =$$

$$= 1 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{2} + 2(k-1)\pi}{3}, \text{ bu yerdak } = 1, 2$$

$$k = 1 \text{ da } \gamma_1 = 1 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{2} + 0}{3} = 1 + 2\cos\frac{\pi}{6} = 1 + \sqrt{3}$$

$$k = 2 \text{ da } \gamma_2 = 1 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{2} + 2\pi}{3} = 1 + 2\cos\frac{5\pi}{6} = 1 - \sqrt{3}$$

1-teoremaga ko'ra matritsaning sonli tasviri $W(M) = [1 - \sqrt{3}, 1 + \sqrt{3}]$ bo'ladi.

2-Misol.

$$M = \begin{pmatrix} 1 & \sqrt{2} - \sqrt{2}i & 0 \\ \sqrt{2} + \sqrt{2}i & 2 & -i \\ 0 & i & 0 \end{pmatrix}$$

matritsani sonli tasvirini topaylik.

Bizga ma'lumki,

$$a_{11} = 1, a_{22} = 2, a_{33} = 0, a_{12} = \sqrt{2} - \sqrt{2}i, a_{23} = -i, |a_{12}|^2 = 4,$$

$$|a_{23}|^2 = 1$$

$$p_0 = -\frac{1}{6}\{(1-2)^2 + (1-0)^2 + (2-0)^2\} - 4 - 1 = -6$$

$$q_0 = \frac{1}{3}(1 \cdot 2 + 1 \cdot 0 + 2 \cdot 0 - 4 - 1)(1 + 2 + 0) - \frac{2}{27} \cdot 27 - 1 \cdot 2 \cdot 0 +$$

$$+ 4 \cdot 0 + 1 \cdot 1 = -3 - 2 + 1 = -4$$

$$\varphi_0 = \arccos\left(-\frac{3 \cdot (-4)}{2 \cdot (-6)}\sqrt{-\frac{3}{(-6)}}\right) = \arccos\left(-\frac{\sqrt{2}}{2}\right) = \frac{3\pi}{4}$$

U holda,

$$\gamma_k = 1 + 2\sqrt{2}\cos\frac{\frac{3\pi}{4} + 2(k-1)\pi}{3}, \quad k = 1, 2$$

$$k = 1 \text{ da } \gamma_1 = 1 + 2\sqrt{2}\cos\frac{\pi}{4} = 1 + 2 = 3 \text{ ga}$$

$$k = 2 \text{ da } \gamma_1 = 1 + 2\sqrt{2}\cos\frac{11\pi}{12} = 1 - \sqrt{2\sqrt{3} + 4} \text{ ga teng.}$$

1-teoremaga ko'ra, matritsaning sonli tasviri uchun ushbu

$$W(M) = \left[1 - \sqrt{2\sqrt{3} + 4}; 3 \right]$$

tenglik o'rinlidir.

3-Misol.

$$M = \begin{pmatrix} 2 & i & 0 \\ -i & 1 & -i \\ 0 & i & 3 \end{pmatrix}$$

matritsaning sonli tasvirini toping.

Bizga ma'lumki,

$$a_{11} = 2, a_{22} = 1, a_{33} = 3, a_{12} = i, a_{23} = -i, |a_{12}|^2 = 1, |a_{23}|^2 = 1$$

Sodda hisoblashlarni bajarib, p_0 , q_0 va φ_0 ning qiymatini topamiz:

$$p_0 = -\frac{1}{6}\{(2-1)^2 + (2-3)^2 + (1-3)^2\} - 1 - 1 = -3$$

$$q_0 = \frac{1}{3}(1 \cdot 2 + 2 \cdot 3 + 1 \cdot 3 - 1 - 1)(2 + 1 + 3) - \frac{2}{27} \cdot 27 - 1 \cdot 2 \cdot 3 + 1 \cdot 3 + 1 \cdot 2 = 5 - 22 + 18 = 1$$

$$\varphi_0 = \arccos\left(-\frac{3 \cdot 1}{2 \cdot (-3)}\sqrt{-\frac{3}{(-3)}}\right) = \arccos\frac{1}{2} = \frac{\pi}{3}$$

U holda,

$$\gamma_k = 2 + 2\cos\frac{\frac{\pi}{3} + 2(k-1)\pi}{3}, \quad k = 1, 2$$

$$k = 1 \text{ da } \gamma_1 = 2 + 2\cos\frac{\pi}{9}$$

$$k = 2 \text{ da } \gamma_2 = 2 + 2\cos\frac{7\pi}{9}$$

1-teoremaga ko'ra, matritsaning sonli tasviri uchun ushbu

$$W(M) = \left[2 + 2\cos\frac{\pi}{9}, 2 + 2\cos\frac{7\pi}{9} \right]$$

tenglik o'rinlidir.

Xulosa. Ushbu maqolada 3×3 o'lehamli o'z-o'ziga qo'shma sonli matritsaning sonli tasviri va uning xos qiymatlari orasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Matritsaning sonli tasviri orqali xos qiymatlar to'plamining joylashuv oralig'i aniqlanib, bu holat uchun umumiy teorema va lemmalar isbotlandi. Keltirilgan misollar asosida sonli tasvirning spektr bilan bevosita bog'liqligi amaliy tarzda ko'rsatildi. Olingan natijalar chiziqli operatorlar va matritsalar spektral nazariyasini yanada chuqurroq o'rganishda hamda funksional analiz masalalarida qo'llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Саpимсоков Т.А. Функционал анализ курси. Тошкент, Ўқитувчи. - 1980, 9-73-bet.
2. Abdullayev J.I., G'anixo'jayev R.N., Shermatov M.H., Egamberdiyev O.I. Funksional analiz. Toshkent-Samarqand, 2009, 110-367-bet.
3. Horn R. A., Johnson Ch. R. Matrix analysis. Cambridge University Press. London, New York, New Rochelle, 1990.
4. Bhatia R. Matrix analysis. Springer-Verlag, New York, 1996.

5. Tretter C. *Spectral theory of block operator matrices and applications*. – London: Imperial College Press, 2008.
6. Rasulov T. H., Tretter C. *Spectral inclusion for diagonally dominant unbounded block operator matrices*. Preprint, 2011, Bern, pp. 1-36.
7. Рид М., Саймон Б. *Методы современной математической физики. Т. 4. Анализ операторов*. М.: Мир. 1982.
8. Като Т. *Теория возмущения линейных операторов*. Изд-во «Мир», Москва, 1972.
9. Rasulov T. H., G'aybullayev R. Q. 3x3 sonli matritsa xos qiymatlarining monotonligi haqida. // Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2012 yil, № 4 (48), 27-31 betlar.
10. Rasulov T. H., G'aybullayev R. Q. 3x3 sonli matritsa xos qiymatlarining ba'zi xossalari. "Yosh matematiklarning yangi teoremlari-2013", Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 15--16 aprel 2013, Namangan, 151-154 betlar.
11. Расулов Т. Х., Гайбуллаев Р. К. О монотонности собственных значений числовой матрицы 3x3. Тезисы 44-й Всероссийской молодёжной школы-конференции "Современные проблемы математики", Екатеринбург, 2013, С. 283-284.
12. Uzoqboyev, A., Abdullayev, S., & Abriyev, N. (2023). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(1), 92-100.
13. Barotov, A. S., & Abdullayev, S. A. (2022, May). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. In *International scientific and practical conference on "Modern problems of applied mathematics and information technologies*.
14. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Ko'phad rezultantining tenglamalar sistemasini yechishga tadbirlari. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).
15. Saxayev M. "Elementar matematika masalalari to'plami" I.II qismlar. «O'qituvchi», Toshkent 1970.1972. 220-236 bet.
16. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning integralini. // *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).

BLOK OPERATORLI MATRITSALARNING SONLI OBRAZLARI

Abdullayev Sarvar Anvar o'g'li,

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada blok operatorli matritsalarning sonli, kvadratik va kubik sonli obrazlari tushunchalari hamda ularning asosiy xossalari tahlil qilinadi. Chiziqli chegaralangan operatorlarning blok shaklidagi tasviri orqali ularning spektral xususiyatlari, sonli obrazlar to'plamining chegaralanganligi va yopiq bo'lishi, shuningdek, operatorning o'z-o'ziga qo'shmalik holatlarida yuzaga keluvchi aloqalar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari funksional analiz va operatorlar nazariyasidagi ayrim muammolarni yechishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: blok operatorli matritsa, chiziqli operator, sonli obraz, kvadratik sonli obraz, kubik sonli obraz, Gilbert fazosi, xos qiymat, spektr.

ЧИСЛОВЫЕ ОБРАЗЫ БЛОЧНО-ОПЕРАТОРНЫХ МАТРИЦ

Аннотация. В данной статье рассматриваются числовые, квадратные и кубические образы блочно-операторных матриц и их основные свойства. С помощью блочного представления линейных ограниченных операторов исследуются спектральные характеристики, ограниченность и замкнутость множеств числовых образов, а также их взаимосвязь в случае самосопряжённых операторов. Полученные результаты могут быть использованы при решении задач функционального анализа и теории операторов.

Ключевые слова: блочно-операторная матрица, линейный оператор, числовой образ, квадратный числовой образ, кубический числовой образ, пространство Гильберта, собственные значения, спектр.

NUMERICAL RANGES OF BLOCK OPERATOR MATRICES

Abstract. This article examines the numerical, quadratic, and cubic ranges of block operator matrices and their fundamental properties. Using the block representation of bounded linear operators, the study explores spectral characteristics, the boundedness and closedness of numerical ranges, and their interrelations in the case of self-adjoint operators. The obtained results can be applied to solving certain problems in functional analysis and operator theory.

Keywords: block operator matrix, linear operator, numerical range, quadratic numerical range, cubic numerical range, Hilbert space, eigenvalue, spectrum.

Kirish. Faraz qilaylik, H_1 va H_2 lar Gilbert fazolari bo'lib, H orqali ularning to'g'ri yig'indisini belgilaymiz, $L(H)$ esa H ni H ga o'tkazuvchi chiziqli chegaralangan (uzluksiz) operatorlar fazosi bo'lsin. Bizga ma'lumki, har qanday $A \in L(H)$ operator

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ A_{21} & A_{22} \end{pmatrix} \quad (1)$$

blok operatorli matritsa ko'rinishda tasvirlanadi, bu yerda

$A_{ij}: H_j \rightarrow H_i$, $i, j = 1, 2$ elementlar chiziqli chegaralangan operatorlar. Agar A operator uchun $A_{11} = A_{11}^*$, $A_{11} = A_{22}^*$, $A_{21} = A_{21}^*$, tengliklar bajarilsa, u holda A o'z-o'ziga qo'shma operator bo'ladi, ya'ni $A^* = A$. $(\cdot, \cdot)_i$ va $\|\cdot\|_i$, $i = 1, 2$ lar orqali H_i fazodagi mos ravishda skalyar ko'paytma va normani belgilaymiz.

$f = (f_1, f_2) \in H$, $\|f_i\|_i = 1$, $i = 1, 2$ elementlar uchun

$$A_f = \begin{pmatrix} (A_{11}f_1, f_1)_1 & (A_{12}f_2, f_1)_1 \\ (A_{21}f_1, f_2)_2 & (A_{22}f_2, f_2)_2 \end{pmatrix}$$

A_f matritsaning barcha xos qiymatlari to'plamiga $A \in L(H)$ blok operatorli matritsaning (1)-ko'rinishiga mos keluvchi kvadratik sonli obrazi deyiladi va $W^2(A)$ kabi belgilanadi, ya'ni

$$W^2(A) = \bigcup_{\substack{\|f_i\| \\ i=1,2}} \sigma_p(A_f)$$

bu yerda, $\sigma_p(A_f)$ orqali A_f ning nuqtali spektri belgilangan. $A_f - 2 \times 2$ sonli matritsa bo'lganligi uchun $\sigma_p(A_f)$ to'plam A_f matritsaning xos qiymatlaridan iborat bo'ladi.

H Gilbert fazosining turli yoyilmalariga turli kvadratik sonli obrazlar to'g'ri keladi.

Masalan, ushbu

$$M = \begin{pmatrix} -2 & -1 & 1 & 0 \\ -1 & -2 & 0 & 1 \\ -2 & -1 & 0 & -3i \\ -1 & -2 & 3i & 0 \end{pmatrix}$$

sonli matritsaning $C^2 \oplus C^2$ va $C^3 \oplus C^1$ yoyilmalariga mos kvadratik sonli obrazlar turlicha bo'ladi.

Ba'zi hollarda kvadratik sonli obrazning quyidagi ekvivalent ta'rifidan foydalanish qulaydir, bunda f_1 va f_2 lar nolmas bo'lib, normasi 1 ga teng bo'lishi shart emas.

$f_i \in H_i \setminus \{0\}$, $i = 1, 2$ element uchun

$$\hat{A}_f = \left(\frac{(A_{ij}f_j, f_i)_i}{\|f_i\|_i \cdot \|f_j\|_j} \right)_{i,j=2}^2$$

matritsani qaraymiz va

$$\Delta(f_1, f_2; \lambda) = \det \begin{pmatrix} (A_{11}f_1, f_1)_1 - \lambda(f_1, f_1)_1 & (A_{12}f_2, f_1)_1 \\ (A_{21}f_1, f_2)_2 & (A_{22}f_2, f_2)_2 - \lambda(f_2, f_2)_2 \end{pmatrix}$$

bo'lsin.

U holda

$$W^2(A) = \bigcup_{f_i \in H_i \setminus \{0\}, i=1,2} \sigma_p(\hat{A}_f) = \{\lambda \in C: \exists f_i \in H_i \setminus \{0\}, \quad i = 1, 2,$$

munosabat o'rinli.

Chiziqli operatorning kvadratik sonli obrazi hamisha uning sonli obrazida saqlanadi:

$$W^2(A) \subset W(A).$$

Agar A operator yuqori yoki quyi uchburchak ko'rinishiga ega bo'lsa, ya'ni

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ 0 & A_{22} \end{pmatrix} \text{ yoki } A = \begin{pmatrix} A_{11} & 0 \\ A_{21} & A_{22} \end{pmatrix} \text{ bo'lsa, u holda}$$

$W^2(A) = W(A_{11}) \cup W(A_{22})$ tenglik o'rinlidir. Chiziqli chegaralangan blok operatorli matritsaning kvadratik sonli obrazi C kompleks sonlar to'plamining chegaralangan qism to'plami bo'ladi:

$$W^2(A) \subset \{\lambda \in C: |\lambda| \leq \|A\|\}$$

Agar $\dim H < \infty$ bo'lsa, u holda $W^2(A)$ yopiq to'plam bo'ladi. Sonli obrazdan farqli ravishda kvadratik sonli obraz umuman olganda qavariq to'plam bo'lmasligi ham mumkin, bu to'plam ko'pi bilan ikkita komponentdan iborat bo'lishi mumkin.

Agar $a, b, c, d \in C$ sonlar orqali aniqlangan

$$A = \begin{pmatrix} a & b \\ c & d \end{pmatrix}$$

sonli matritsada $a, d \in R$ va $c = \bar{b}$ bo'lsa, u holda uning xos qiymatlari

$$\lambda_1 = \max\{a, d\} + |b| \operatorname{tg} \left(\frac{1}{2} \arctg \frac{2|b|}{|a-b|} \right);$$

$$\lambda_2 = \min\{a, d\} - |b| \operatorname{tg} \left(\frac{1}{2} \arctg \frac{2|b|}{|a-b|} \right).$$

ko'rinishida tasvirlanadi.

$f_i \in H_i \setminus \{0\}$ element uchun

$$dis_A(f_1, f_2) = \left(\frac{(A_{11}f_1, f_1)_1}{\|f_1\|_1^2} - \frac{(A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_2\|_2^2} \right)^2 + 4 \frac{(A_{11}f_1, f_1)_1 \cdot (A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_1\|_1^2 \cdot \|f_2\|_2^2}$$

belgilashni kiritamiz. Agar $dis_A(f_1, f_2) \geq 0$ bo'lsa, u holda

$$\lambda_{\pm} \begin{pmatrix} f_1 \\ f_2 \end{pmatrix} = \frac{1}{2} \left(\frac{(A_{11}f_1, f_1)_1}{\|f_1\|_1^2} + \frac{(A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_2\|_2^2} \right) \pm \frac{1}{2} \sqrt{\left(\frac{(A_{11}f_1, f_1)_1}{\|f_1\|_1^2} - \frac{(A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_2\|_2^2} \right)^2 + 4 \frac{(A_{11}f_1, f_1)_1 \cdot (A_{22}f_2, f_2)_2}{\|f_1\|_1^2 \cdot \|f_2\|_2^2}}$$

belgilashni kiritamiz. Agar o'z-o'ziga qo'shma bo'lsa, u holda $W^2(A) \subset R$ bo'ladi va

$$W^2(A) = \Lambda_-(A) \cup \Lambda_+(A)$$

tenglik o'rinaldir, bu yerda

$$\Lambda_{\pm}(A) = \left\{ \lambda_{\pm} \begin{pmatrix} f_1 \\ f_2 \end{pmatrix} : f_i \in H_i \setminus \{0\}, i = 1, 2 \right\}$$

Shunday qilib, chiziqli chegaralangan blok operatorli matritsalarining kvadratik sonli obrazini o'rganishda sonli matritsaning xos qiymatlari muhim o'rin egallar ekan.

Endi chiziqli operatorning kubik sonli obrazini qaraymiz. Agar operatorning spektri uchta kesishmaydigan kesmalar birlashmasidan iborat bo'lsa, u holda bu operatorning sonli obrazi ham, kvadratik sonli obrazi ham spektri yetarlicha o'rganish imkonini bera olmaydi. Quyida biz kubik sonli diopozon va uning ba'zi xossalarga to'xtalamiz.

H_1, H_2 va H_3 lar Gilbert fazolari, H esa bu fazolarning to'g'ri yig'indisi, ya'ni

$$H = H_1 \oplus H_2 \oplus H_3$$

bo'lsin. U holda istalgan $A \in L(H)$ operator

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix} \quad (2)$$

ko'rinishidagi 3×3 blok operatorli matritsa kabi tasvirlanadi, bunda $A_{ij}: H_j \rightarrow H_i$,

$i, j = 1, 2, 3$ lar chiziqli chegaralangan operatorlar.

S orqali H dagi birlik sferani belgilaymiz, ya'ni

$$S = \{f \in (f_1, f_2, f_3) \in H : \|f_i\| = 1, \quad i = 1, 2, 3\}$$

$f \in S$ element uchun ushbu

$$A = \begin{pmatrix} (A_{11}f_1, f_1) & (A_{12}f_2, f_1) & (A_{13}f_3, f_1) \\ (A_{21}f_1, f_2) & (A_{22}f_2, f_2) & (A_{23}f_3, f_2) \\ (A_{31}f_1, f_3) & (A_{32}f_2, f_3) & (A_{33}f_3, f_3) \end{pmatrix}$$

3×3 matritsani qaraymiz.

U holda

$$W^3(A_f) = \bigcup_{f \in S} \sigma_p(A_f)$$

to'plamga $A_{3 \times 3}$ blok operatorli matritsaning (2) ko'rinishiga mos kubik sonli obrazi deyiladi.

Ma'lumki, har bir uchun

$$\sigma_p(A_f) = \{\lambda \in \mathbb{C} : \det(A_f - \lambda) = 0\}.$$

tenglik o'rinaldir. Shu sababli, $W^3(A)$ to'plam uchun quyidagi ekvivalent formula o'rinni:

$$W^3(A) = \{\lambda \in \mathbb{C} : \exists f \in S, \quad \det(A_f - \lambda) = 0\}.$$

Chiziqli operatorning kubik sonli obrazi hamisha uning sonli obrazida yotadi, ya'ni

$$W^3(A) \subset W(A).$$

Agar A operator yuqori yoki quyi uchburchak ko'rinishda bo'lsa, ya'ni

$$A = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ 0 & A_{22} & A_{23} \\ 0 & 0 & A_{33} \end{pmatrix} \text{ yoki } A = \begin{pmatrix} A_{11} & 0 & 0 \\ A_{21} & A_{22} & 0 \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix}$$

ko'rinishga ega bo'lsa, u holda $W^3(A)$ uchun

$$W^3(A) = W(A_{11}) \cup W(A_{22}) \cup W(A_{33})$$

tenglik o'rinlidir.

Chiziqli chegaralangan blok operatorli matritsaning kubik sonli obrazi C kompleks sonlar to'plamining chegaralangan qism to'plamidir, ya'ni

$$W^3(A) \subset \{\lambda \in \mathbb{C} : |\lambda| \leq \|A\|\}.$$

Agar $\dim H < \infty$ bo'lsa, u holda $W^3(A)$ yopiq to'plam bo'ladi. Kubik sonli obraz ko'pi bilan uchta komponentlardan iborat bo'lishi mumkin.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, 3×3 blok operatorli matritsa kubik sonli obrazini o'rganishda 3×3 sonli matritsa xos qiymatlari muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Саримсоков Т.А. Функционал анализ курси. Тошкент, Ўқитувчи 1980, 9-73-bet.
2. Abdullayev J.I., G'anixo'jayev R.N., Shermatov M.H., Egamberdiyev O.I. Funksional analiz. Toshkent-Samarqand, 2009, 110-367-bet.
3. Horn R. A., Johnson Ch. R. Matrix analysis. Cambridge University Press. London, New York, New Rochelle, 1990.
4. Bhatia R. Matrix analysis. Springer-Verlag, New York, 1996.
5. Tretter C. Spectral theory of block operator matrices and applications. – London: Imperial College Press, 2008.
6. Rasulov T. H., Tretter C. Spectral inclusion for diagonally dominant unbounded block operator matrices. Preprint, 2011, Bern, pp. 1-36.
7. Рид М., Саймон Б. Методы современной математической физики. Т. 4. Анализ операторов. М.: Мир. 1982.
8. Като Т. Теория возмущения линейных операторов. Изд-во «Мир», Москва, 1972.
9. Rasulov T. H., G'aybullayev R. Q. 3×3 sonli matritsa xos qiymatlarining monotonligi haqida. // Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2012 yil, № 4 (48), 27-31 betlar.
10. Rasulov T. H., G'aybullayev R. Q. 3×3 sonli matritsa xos qiymatlarining ba'zi xossalari. "Yosh matematiklarning yangi teoremlari-2013", Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 15--16 aprel 2013, Namangan, 151-154 betlar.
11. Расулов Т. Х., Гайбуллаев Р. К. О монотонности собственных значений числовой матрицы 3×3 . Тезисы 44-й Всероссийской молодежной школа-конференции "Современные проблемы математики", Екатеринбург, 2013, С. 283-284.
12. Uzoqboyev, A., Abdullayev, S., & Abriyev, N. (2023). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. // Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(1), 92-100.
13. Barotov, A. S., & Abdullayev, S. A. (2022, May). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. In International scientific and practical conference on "Modern problems of applied mathematics and information technologies.
14. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Ko'phad rezultatining tenglamalar sistemasini yechishga tadbiqlari. // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
15. Saxayev M. "Elementar matematika masalalari to'plami" I.II qismlar."O'qituvchi" Toshkent 1970.1972. 220-236 bet.
16. Anvar o'g'li, A. S. (2024). Kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning integralini. // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).

TARMOQLANUVCHI TASODIFIY JARAYONNING TA'RIFI VA TALQINI

Muxtorova Shohida Negmat qizi,

Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
muxtorovashohida1998@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning nazariy asoslari, ularning matematik ta'rifi hamda ehtimollik nuqtayi nazaridan talqini yoritilgan. Tarmoqlanuvchi jarayon — bu vaqt o'tishi bilan elementlarning ko'payishi yoki yo'qolishi ehtimoli orqali rivojlanadigan tasodifiy tizim sifatida qaraladi. Maqolada bunday jarayonlarning Markov xossasi, stasionarlik, o'sish tezligi va yo'qolish ehtimoli kabi asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Galton–Watson modeli misolida tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonning amaliy talqini va uning populyatsiya dinamikasini modellashirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari tarmoqlanuvchi jarayonlarning biologiya, demografiya, epidemiologiya va axborot tizimlaridagi qo'llanilishini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayon, ehtimollik modeli, Markov xossasi, Galton–Watson jarayoni, stasionarlik, populyatsiya dinamikasi.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЕТВЯЩЕГОСЯ СЛУЧАЙНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы ветвящихся случайных процессов, их математическое определение и вероятностная интерпретация. Ветвящийся процесс рассматривается как стохастическая система, которая развивается во времени за счёт вероятностного размножения или исчезновения элементов. Проанализированы основные свойства таких процессов, включая марковское свойство, стационарность, скорость роста и вероятность вырождения. В качестве примера приведена модель Гальтона–Уотсона, демонстрирующая практическое применение ветвящихся случайных процессов при моделировании динамики популяций. Результаты исследования способствуют теоретическому обоснованию применения ветвящихся процессов в биологии, демографии, эпидемиологии и информационных системах.

Ключевые слова: ветвящийся случайный процесс, вероятностная модель, марковское свойство, процесс Гальтона–Уотсона, стационарность, динамика популяции.

DEFINITION AND INTERPRETATION OF THE BRANCHING RANDOM PROCESS

Abstract. This article examines the theoretical foundations of branching stochastic processes, providing their mathematical definition and probabilistic interpretation. A branching process is considered as a stochastic system that evolves over time through the probabilistic reproduction or extinction of its elements. The paper analyzes key properties such as the Markov property, stationarity, growth rate, and extinction probability. The Galton–Watson model is presented as an example to illustrate the practical interpretation of branching stochastic processes and their role in modeling population dynamics. The results of the study contribute to the theoretical justification of branching process applications in biology, demography, epidemiology, and information systems.

Keywords: branching stochastic process, probabilistic model, Markov property, Galton–Watson process, stationarity, population dynamics.

Kirish. Bu maqolada biz bir turdagi zarrachalar bilan berilgan eng sodda tur Markov tarmoqlanuvchi jarayonlarini o'rganamiz. Vaqtga nisbatan bir jinsli Markov jarayonlarini $N = \{1, 2, \dots\}$ holatlar fazosida qaraymiz. Markov jarayonining o'tish ehtimolligi $P_{ij}(t)$, $t \in T$ quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$P_{ij}(t) \geq 0 \quad (1)$$

barcha $i, j \in \mathbb{N}$ va $t \in T$ uchun (nomanfiylik sharti);

$$\sum_{j=0}^{\infty} P_{ij}(t) = 1 \quad (2)$$

ixtiyoriy $i, j \in \mathbb{N}$ va $t \in T$ da (normalanganlik sharti);

$$P_{ij}(t) = \sum_{k=0}^{\infty} P_{ik}(u) P_{kj}(t-u) \quad (3)$$

ixtiyoriy $i, j \in \mathbb{N}$ va $0 \leq u \leq t, u, t \in T$ (markovlik xossasi);

$$P_{ij}(0) = \delta_{ij} = \begin{cases} 1, & i = j \\ 0, & i \neq j \end{cases} \quad (\text{boshlang'ich shart})$$

(4).

Ta'rif 1.1.1. Agar $P_{ij}(t)$ o'tish ehtimolligi $P_{ij}(t)$ ning n -karrali taqsimot kompozitsiyasi

$$P_{ij}(t) = P_{1j}^{*i}(t) = \sum_{j_1+j_2+\dots+j_i=j} P_{1j_1}(t) P_{1j_2}(t) \dots P_{1j_i}(t) \quad (5)$$

(tarmoqlanish sharti)ga ega bo'lsa, Markov jarayoni $\mathbb{N}$ da tarmoqlanuvchi deyiladi, xususan, $i=0$ da (1.1.5) shart $P_{0j}(t) = \delta_{0j}$ ni bildiradi [14].

T ning qism to'plamlari nomanfiy butun sonlar to'plami $\mathbb{N}_0 = \{0\} \cup \mathbb{N}$ yoki $t \in [0, \infty)$ bo'lishi mumkin. Birinchi holatda *diskret vaqtli*, ikkinchi holatda *uzluksiz vaqtli* tarmoqlanuvchi jarayonlar haqida gapiramiz.

$t \in [0, \infty)$ uzluksiz bo'lgan holatda odatda yana qo'shimcha

$$\lim_{t \uparrow 0} P_{ii}(t) = 1 \quad (6)$$

uzluksizlik sharti ishlatiladi. (6), (1) va (2) shartlardan birdaniga har bir i uchun barcha $j \neq i$ larda bir tekis

$$\lim_{t \downarrow 0} P_{ij}(t) = 0, \quad (7)$$

(3) shartdan esa barcha $P_{ii}(t)$ o'tish ehtimolliklarining $\forall t \geq 0$ da uzluksizligi kelib chiqadi.

(5) tarmoqlanish shartlari ko'rib chiqilayotgan tarmoqlanuvchi jarayonlar sinfini Markov jarayonlaridan ajratib turadi. Bunday tanlash ikki nuqtayi nazardan asoslanadi. Bir tomondan, tarmoqlanuvchi jarayonlar fizikada, kimyoda, biologiyada, texnikada, demografiyada va boshqalarda real hodisalarning ancha keng sinfini tavsiflaydi. Boshqa tomondan, juda qulay matematik apparat bo'lgan hosil qiluvchi funksiyalar tarmoqlanuvchi jarayonlarni chuqur o'rganish imkonini beradi. Tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasida ularning o'ziga xos muammoli bayonlari va ularni hal qilish usullari tabiiy ravishda ajralib turadi [3].

Kelgusida biz fizik va kimyoviy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlanuvchi jarayonlarining haqiqiy mazmunini aks ettiruvchi vizual terminologiyaga amal qilamiz. Bizga bir xil turdagi zarrachalar berilgan bo'lsin. Tizimning holati zarrachalar soni bilan aniqlanadi. t vaqtdagi zarrachalar sonini $X(t)$ bilan belgilaylik. Faraz qilaylik, t vaqtda bir zarracha, kelib chiqishi va boshqa zarrachalar mavjudligidan qat'iy

nazar, $P_{1n}(t)$ ehtimollik bilan n ta zarrachaga aylanadi va $\sum_{n=0}^{\infty} P_{1n}(t) = 1$. Bundan agar dastlabki vaqtda k ta

zarracha mavjud bo'lsa, keyin t vaqt o'tishi bilan ular $X^{(1)}(t) + X^{(2)}(t) + \dots + X^{(k)}(t)$ zarrachaga aylanadi, bu yerda $X^{(i)}(t)$ - i -zarrachaning avlodlar soni, barcha $X^{(i)}(t)$, $i=1, 2, \dots, k$ lar bog'liqsiz va bir xil $P_{1n}(t) = P\{X^{(i)}(t) = n\}$ taqsimotga ega. Shunday qilib, t vaqt ichida $P_{kn}(t)$ ning k zarrachadan n ta zarrachaga o'tish ehtimoli uchun $P_{1n}(t)$ ning k -karrali kompozitsiyasi, ya'ni

$$P_{kn}(t) = P_{1n}^{*k}(t) = \sum_{n_1+n_2+\dots+n_k=n} P_{1n_1}(t) P_{1n_2}(t) \dots P_{1n_k}(t)$$

o'rinli.

Bundan tashqari, biz zarrachalarning o'zgarishi oldingi davrdagi tarixiga bog'liq emas, deb faraz qilganimiz uchun, $X(t)$ jarayon Markov jarayonidir, ya'ni $P_{kn}(t)$ o'tish ehtimolligi (3) shartni qanoatlantiradi [13].

Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayon — bu ehtimollik nazariyasida o'ziga xos o'rin egallagan, avlodlar bo'yicha takrorlanadigan stoxastik tizim bo'lib, uning asosiy strukturasini elementlarning mustaqil

replikatsiya mexanizmi tashkil etadi. Har bir element ma'lum ehtimollik taqsimotiga ega bo'lgan tasodifiy sonli avlod hosil qilishi bilan jarayonning keyingi holati aniqlanadi. Shuning uchun tarmoqlanuvchi jarayonlarning dinamikasi diskret vaqtli va tasodifiy ko'payish mexanizmiga ega bo'lgan Markov jarayoni sifatida qaraladi.

Tarmoqlanuvchi jarayonni tavsiflashda asosiy parametrlar quyidagilardan iborat:

1. Avlodlar taqsimoti

Jarayonning rivojlanishi $p_k = P(X = k)$ ehtimollik taqsimoti orqali belgilanadi. Bu taqsimot har bir element nechta avlod hosil qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Avlodlar taqsimoti jarayonning barqarorligi va uzoq muddatli xatti-harakatini aniqlovchi asosiy omildir.

2. Matematik kutilma:

Jarayonning o'sish yoki yo'qolish holati quyidagi kutilma bilan aniqlanadi:

$$m = \sum_{k=0}^{\infty} k p_k$$

Agar ($m < 1$) bo'lsa — jarayon degeneratsiyalanuvchi, ya'ni yo'q bo'lib ketadi.

Agar ($m = 1$) bo'lsa — kritik holat, jarayonning uzoq muddatli barqarorligi sezilarli darajada tasodifiylikka bog'liq.

Agar ($m > 1$) bo'lsa — jarayonning cheksiz o'sish ehtimoli mavjud bo'ladi.

3. Generatsiya funksiyasi

Tarmoqlanuvchi jarayonlarning matematik tahlilida quyidagi generatsiya funksiyasi muhim rol o'ynaydi:

$$G(s) = \sum_{k=0}^{\infty} p_k s^k$$

Bu funksiya jarayonning avlodlar soniga oid barcha ehtimollik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Jarayonning asimptotik tavsifi va yo'qolish ehtimoli aynan ushbu funksiyaning qat'iy matematik xususiyatlari orqali aniqlanadi.

4. Yo'qolish ehtimoli:

Jarayonning yo'qolish ehtimoli q generatsiya funksiyasining quyidagi tenglamani qanoatlantiruvchi eng kichik musbat ildizidir:

$$q = G(q).$$

Bu matematik mezon jarayonning uzoq muddatli barqarorligini baholashda asosiy nazariy vosita hisoblanadi.

5. Tarmoqlanuvchi jarayonlarning qo'llanilish sohalari:

Ushbu jarayonlar ko'plab amaliy sohalarda qo'llaniladi:

Biologiya — populyatsiya o'sishini modellashtirish

Genetika — nasl zanjiri va mutatsiya jarayonlarining rivojlanishi

Epidemiologiya — infeksiya tarqalishi zanjiri

Yadroviy fizika — neytronlarning ko'payish jarayoni

Axborot tizimlari — tarmoqlanuvchi ma'lumot oqimlarining modellarini yaratish

Har bir sohada jarayonning o'ziga xos interpretatsiyasi mavjud bo'lib, ular orqali murakkab tizimlarning tasodifiy rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi.

6. Tarmoqlanuvchi jarayonning talqini:

Tarmoqlanuvchi jarayon nafaqat matematik model, balki tizimlarning o'z-o'zidan rivojlanishiga oid universal konsepsiya sifatida qaraladi. U tizimdagi har bir elementning mustaqil qaror qabul qilishi yoki mustaqil ko'payish mexanizmi mavjud bo'lgan holatlarni aniqlashda qo'llanadi. Shuning uchun ushbu jarayon tasodifiy tizimlarning o'z-o'zidan tashkil bo'lishi va o'sish dinamikasini tushuntiruvchi fundamental nazariy model sanaladi.

Diskret vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan angliyalik statistiklar Galton va Vatsonlar nomlari bilan bog'liq. Ular familiyalarni yo'qolib ketishi masalasini yechishda o'zlarining matematik modelini taklif etishgan. Keyinchalik bu model umumlashmasi bilan bog'liq jarayonlar (diskret vaqtli) Galton-Vatson jarayonlari deb nom oldi. Galton-Vatson jarayonining uzluksiz vaqtdi umumlashmasi esa tarmoqlanuvchi Markov jarayonlaridir. Demak, Galton-Vatson jarayoni tarmoqlanuvchi jarayonlarning eng sodda ko'rinishi ekan. Jarayonda ishtirok etayotgan alohida zarrachalar evolyusiyasi zarrachalar o'tmishi va soniga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshadi. Bunday bog'liqsizlik real jarayonlar uchun juda kuchli chegaralanishdek tuyulsada, ko'plab holatlar uchun bunday chegaralanish mutlaqo tabiiydir. Yuqoridagi kabi masalalarni o'rganishda eng yaqin model bo'lgani uchun ham

tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi keyingi vaqtda tez suratlarda bilan rivojlanmoqda. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni o'rganishda juda kuchli matematik apparat bo'lgan hosil qiluvchi funksiyalar apparatidan foydalanish imkoniyati bu rivojlanishdagi yana bir muhim mezondir. Bugungi kunga kelib, tarmoqlanuvchi jarayonlarning ko'plab modellari mavjud va rivojlanmoqda. 1957 yilda B.A.Sevastyanov tomonidan ta'riflangan immigratsiyali jarayonlar 1948 - yilda AQShlik olimlar Bellman va Xarrislar tomonidan kiritilgan zarrachalar yoshiga bog'liq jarayonlar, migratsiyali jarayonlar, diffuziyali jarayonlar, energiyali zarralar uchun tarmoqlanuvchi jarayonlar, tug'ilish va o'lim jarayonlari va hokazolar shular jumlasidandir. Deyarli barcha klassik teoremlar dastlab Galton-Vatson jarayonlari uchun isbotlangan va keyin boshqa modellar uchun umumlashtirilgan.

Uzluksiz vaqtli tarmoqlanuvchi jarayonlar ba'zi hollarda kimyoviy zanjir reaksiyalarining dastlabki bosqichlarini yaxshi tasvirlashi mumkin. Biror muhitda (masalan, molekularlar, ionlar, alohida atomlar va boshqalar) oz miqdordagi faol zarrachalar bo'lsin. Faraz qilaylik, reaksiya faol zarrachalar muhit zarrachalari bilan to'qnashganda sodir bo'lsin. Har bir bunday to'qnashuv natijasida ma'lum bir ehtimollik bilan ikkita faol zarracha paydo bo'lishi yoki yutilish sodir bo'lishi mumkin. Reaksiyaning dastlabki bosqichida faol zarrachalar kam bo'lgani uchun ularning bir-biri bilan to'nashuvini e'tiborsiz qoldirishimiz mumkin. So'ngra faol zarralarning har biri boshqalardan mustaqil ravishda yangi faol zarrachalarni hosil qiladi. Shuning uchun bunday reaksiyani uzluksiz vaqt bilan mos keladigan tarmoqlanish jarayoni bilan juda yaxshi tasvirlash mumkin [12].

Quyida biz illyustratsiya sifatida tarmoqlanish jarayonlarini qo'llash mumkin bo'lgan turli misollarni keltiramiz. Xususan, bir necha turdagi zarrachalar bilan berilgan tarmoqlanuvchi jarayonlar kimyoviy zanjir reaksiyalarini tavsiflash uchun ko'proq mos keladi, chunki reaksiyada odatda bir necha turdagi molekularlar yoki ularning qismlari ishtirok etadi.

Xulosa. Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning nazariy asoslarini o'rganish natijasida ushbu jarayonlarning murakkab ehtimollik tuzilmasiga ega ekani aniqlangan. Ularning rivojlanish mexanizmi har bir avlod elementlarining tasodifiy tarmoqlanish jarayoni orqali ifodalanadi, bu esa tizimning vaqt bo'yicha o'sishi yoki yo'qolish ehtimolini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida tarmoqlanuvchi jarayonlarning Markov xossasi, stasionarlik shartlari, shuningdek, Galton-Watson modeli misolida ularning o'sish dinamikasi matematik jihatdan tahlil qilindi.

Olingan nazariy natijalar tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning matematik modellashtirish usullarini yanada takomillashtirish, ularning chegaraviy taqsimotlarini o'rganish va turli sohalarda (biologiya, demografiya, epidemiologiya, axborot tizimlari) qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish uchun ilmiy asos yaratadi. Mazkur tadqiqot natijalari tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasining rivojiga hissa qo'shadi hamda murakkab tasodifiy tizimlarni tavsiflashda yangi tahliliy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Feller, W. (1968). *An Introduction to Probability Theory and Its Applications*. Vol. I–II. New York: John Wiley & Sons.
2. Harris, T. E. (1963). *The Theory of Branching Processes*. Berlin: Springer-Verlag.
3. Athreya, K. B., & Ney, P. E. (1972). *Branching Processes*. New York: Springer-Verlag.
4. Grimmett, G., & Stirzaker, D. (2001). *Probability and Random Processes*. Oxford: Oxford University Press.
5. Karlin, S., & Taylor, H. M. (1975). *A First Course in Stochastic Processes*. New York: Academic Press.
6. Нагорный, В. П. (1982). *Стохастические процессы и их приложения*. Москва: Наука.
7. Чистов, Н. В. (1990). **Ветвящиеся случайные процессы и их математические модели*. Москва: Наука.
8. Ходжаев, А. А. (2008). *Tasodifiy jarayonlar nazariyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
9. Эргашев, М. И. (2016). *Ehtimolliklar nazariyasi va tasodifiy jarayonlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Ross, S. M. (2014). *Introduction to Probability Models*. 11th ed. Academic Press.
11. Mode, C. J. (1971). *Multitype Branching Processes: Theory and Applications*. New York: Elsevier.
12. Назаров, Б. Б. (2021). *Tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning ehtimollik modellari va ularning amaliy qo'llanilishi*. – *O'zbekiston matematika jurnali*, №3, 45–56-betlar.

13. Qodirov, R. A., & Jo'rayev, Sh. M. (2019). *Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
14. Karimov, U. S. (2017). *Tasodifiy jarayonlarning matematik modellari va ularning amaliy qo'llanilishi*. Toshkent: TATU nashriyoti.
15. To'xtayev, N. A. (2020). *Matematik modelashtirish va ehtimollik usullari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

QATORLARNING YAQINLASHISHINI TAHLIL QILISHDA D’ALAMBER ALOMATI VA UNGA O‘XSHASH ALOMATLAR

Omonov Olim Isoqovich,

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Shog‘dorova Qunduz Samad qizi,

$$\begin{aligned} m_1(T) &= C|\mu| [||\varphi|| ||k||^2 T e^{||k||\frac{T^2}{2}} + ||\varphi'|| [(1 + (1 + \frac{T^2}{2}) ||k|| e^{||k||\frac{T^2}{2}}) ||k|| T \\ &+ ||k|| (T + \frac{T^2}{2}) e^{||k||\frac{T^2}{2}} + (1 + ||k||) + ||k|| (T (1 + (1 + \frac{T^2}{2}) ||k|| e^{||k||\frac{T^2}{2}}) + (T + \frac{T^2}{2}) e^{||k||\frac{T^2}{2}}) \\ &+ 1 + (1 + \frac{T^2}{2}) ||k|| e^{||k||\frac{T^2}{2}} + (1 + (2 + \frac{T^2}{2} ||k||) e^{||k||\frac{T^2}{2}} + ||k|| (e^{||k||\frac{T^2}{2}} + 1)) ||k|| T] \\ &+ (||\varphi'|| + ||\varphi||) (e^{||k||\frac{T^2}{2}} + 1) ||k|| T] = \rho. \end{aligned}$$

Then for $T \in [0, T_1]$ we have $A[k](t) \in B^T(k_0, \rho)$.

Now consider two functions $k(t)$ and $\tilde{k}(t)$ belonging to the ball $B^T(k_0, \rho)$ and estimate the distance between their images $A[k](t)$ and $A[\tilde{k}](t)$ in the space $C[0, T]$. Composing the difference $A[k](t) - A[\tilde{k}](t)$ with the help of equations $u_0(t), u_{2n-1}(t), u_{2n}(t)$ and $\tilde{u}_0(t), \tilde{u}_{2n-1}(t), \tilde{u}_{2n}(t)$, then estimating its norm, we obtain

$$\begin{aligned} ||A[k](t) - A[\tilde{k}](t)|| &\leq C|\mu| \left| \int_0^t (u'_0(t-s)\bar{k}(s) + \bar{u}'_0(t-s)\tilde{k}(s))ds \right| \\ &+ \left| \sum_{n=1}^{\infty} \int_0^t (u'_{2n-1}(t-s)\bar{k}(s) + \bar{u}'_{2n-1}(t-s)\tilde{k}(s))ds \right| \\ &+ \left| \sum_{n=1}^{\infty} \int_0^t (u_{2n-1}(t-s)\bar{k}(s) + \bar{u}_{2n-1}(t-s)\tilde{k}(s))ds \right| \end{aligned}$$

$$+ \left| \sum_{n=1}^{\infty} \int_0^t e^{-\frac{\lambda_n^2}{1+\lambda_n^2}(t-\tau)} d\tau \int_0^{\tau} (u_{2n-1}(\tau-s)\bar{k}(s) + \bar{u}_{2n-1}(\tau-s)\tilde{k}(s))ds \right|$$

$$+ \left| \sum_{n=1}^{\infty} \bar{u}''_{2n-1}(t) \right| + \left| \sum_{n=1}^{\infty} \bar{u}'_{2n-1}(t) \right| + \left| \sum_{n=1}^{\infty} \int_0^t (u'_{2n}(t-s)\bar{k}(s) + \bar{u}'_{2n-1}(t-s)\tilde{k}(s))ds \right|.$$

Let $\varphi_0 = \tilde{\varphi}_0$, $\varphi_{2n-1} = \tilde{\varphi}_{2n-1}$, $\varphi_{2n} = \tilde{\varphi}_{2n}$. Then using inequality (22)-(28) and the estimate (39)-(45) with we will drive the next inequality for $\|A[k] - A[\tilde{k}]\|$:

$$\begin{aligned} \|A[k](t) - A[\tilde{k}](t)\| &\leq \frac{C|\bar{\mu}|}{\sigma} [(\|u'_0\| \|\bar{k}\| + \|\bar{u}'_0\| \|\tilde{k}\|)T + \sum_{n=1}^{\infty} [\|u'_{2n-1}\| \|\bar{k}\| T + \|\bar{u}'_{2n-1}\| \|\tilde{k}\| T \\ &\quad + \|u_{2n-1}\| \|\bar{k}\| T + \|\bar{u}_{2n-1}\| \|\tilde{k}\| T + \|u_{2n-1}\| \|\bar{k}\| \frac{T^2}{2} + \|\bar{u}_{2n-1}\| \|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2} + \|\bar{u}''_{2n-1}\| + \|\bar{u}'_{2n-1}\| \\ &\quad + \|u'_{2n}\| \|\bar{k}\| T + \|\bar{u}'_{2n}\| \|\tilde{k}\| T]] \leq C|\bar{\mu}| [\|u'_0\| T + \sum_{n=1}^{\infty} [(T + \frac{T^2}{2}) \|u_{2n-1}\| + \|u'_{2n-1}\| T + \| \\ &\quad u'_{2n}\| T] \\ &\quad + \left(1 + \frac{T^2}{2} e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} \|\tilde{k}\|\right) \|u_0\| \|\tilde{k}\| T + \sum_{n=1}^{\infty} \|u_{2n-1}\| [(T + \frac{T^2}{2}) \|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2} e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} \\ &\quad + \|\tilde{k}\| T \left((3+T) \left(T + \frac{T^2}{2}\right) \left(1 + \|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2} e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}}\right) + T^2 e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} \right)] \\ &\quad + \sum_{n=1}^{\infty} \|u_{2n}\| \left(1 + \frac{T^2}{2}\right) \|\bar{k}\| + \sum_{n=1}^{\infty} \|u_{2n}\| \left(1 + \frac{T^2}{2}\right) \|\bar{k}\| \leq C|\bar{\mu}| [\|\varphi_0\| e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} [\|k\| T^2 + 1 + \\ &\quad \frac{T^2}{2} e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} \|\tilde{k}\|] \\ &\quad + \sum_{n=1}^{\infty} |\varphi_{2n-1}| \left[\left(T + \frac{T^2}{2}\right) (e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} + \left(T + \left(T^2 + \frac{T^3}{2}\right) \|k\| e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} + T e^{\|k\| \frac{T^2}{2}}) \|k\| e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} \right. \right. \\ &\quad \left. \left. + \left(1 + \left(T + \frac{T^2}{2}\right) \|k\| e^{\|k\| \frac{T^2}{2}}\right) T + \left(1 + \left(1 + T + \frac{T^2}{2}\right) \|k\|\right) (T+1) e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} \right. \right. \\ &\quad \left. \left. + e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} \|\tilde{k}\| T \left[\left(T + \frac{T^2}{2}\right) \left(\frac{T}{2} e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} + 1 + \|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2} e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} (3+T)\right) + T^2 e^{\|\tilde{k}\| \frac{T^2}{2}} \right] \right. \right. \\ &\quad \left. \left. + \left(T + \left(T^2 + \frac{T^3}{2}\right) \|k\| e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} + T e^{\|k\| \frac{T^2}{2}}\right) e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} \right] \right. \\ &\quad \left. + \sum_{n=1}^{\infty} |\varphi_{2n}| \left[\left(T + \frac{T^2}{2}\right) \|k\| e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} + 1 + \left(1 + \frac{T^2}{2}\right) e^{\|k\| \frac{T^2}{2}} \right] \|\bar{k}\|. \end{aligned} \quad (52)$$

The functions $k(t)$ and $\tilde{k}(t)$ belong to the ball $B^T(k_0, \rho)$, and hence for each of these functions one has inequality (51) is valid. Note that the function on the right-hand side in inequality (52) at the factor $\|\bar{k}\|$

is monotone increasing with $||k||$, $||\tilde{k}||$, and T . Consequently, replacing $||k||$ and $||\tilde{k}||$ in inequality (52) with $\rho + ||k_0||$ will only strengthen the inequality. This, we have

$$\begin{aligned} & \|A[k](t) - A[\tilde{k}](t)\| \leq C|\bar{\mu}|[||\varphi||e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \left[\rho_0 T^2 + 1 + \frac{T^2}{2} e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \rho_0 \right] \\ & + ||\varphi'|| \left[\left(T + \frac{T^2}{2} \right) \left(e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + \left(T + \left(T^2 + \frac{T^3}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + T e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) \right. \\ & + \left(1 + \left(T + \frac{T^2}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) T + \left(1 + \left(1 + T + \frac{T^2}{2} \right) \rho_0 \right) (T + 1) e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \\ & + e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \rho_0 T \left[\left(T + \frac{T^2}{2} \right) \left(\frac{T}{2} e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + 1 + \rho_0 \frac{T^2}{2} e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} (3 + T) \right) + T^2 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right] \\ & \left. + \left(T + \left(T^2 + \frac{T^3}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + T e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right] \\ & + (||\varphi'|| + ||\varphi||) \left[\left(T + \frac{T^2}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + 1 + \left(1 + \frac{T^2}{2} \right) e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right] ||\bar{k}||. \end{aligned} \quad (55)$$

Let T_2 be a positive root of the equation

$$\begin{aligned} & m_2(T) = C|\bar{\mu}|[||\varphi||e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \left[\rho_0 T^2 + 1 + \frac{T^2}{2} e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \rho_0 \right] \\ & + ||\varphi'|| \left[\left(T + \frac{T^2}{2} \right) \left(e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + \left(T + \left(T^2 + \frac{T^3}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + T e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) \right. \\ & + \left(1 + \left(T + \frac{T^2}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) T + \left(1 + \left(1 + T + \frac{T^2}{2} \right) \rho_0 \right) (T + 1) e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \\ & + e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \rho_0 T \left[\left(T + \frac{T^2}{2} \right) \left(\frac{T}{2} e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + 1 + \rho_0 \frac{T^2}{2} e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} (3 + T) \right) + T^2 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right] \\ & \left. + \left(T + \left(T^2 + \frac{T^3}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + T e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right) e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right] \\ & + (||\varphi'|| + ||\varphi||) \left[\left(T + \frac{T^2}{2} \right) \rho_0 e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} + 1 + \left(1 + \frac{T^2}{2} \right) e^{\rho_0 \frac{T^2}{2}} \right] = 1. \end{aligned}$$

Conclusion. Then for $T \in (0, T_2)$ we have that the distance between the functions $A[k](t)$ and $A[\tilde{k}](t)$ in the function space $C[0, T]$ is not greater than distance between $||k||$ and $||\tilde{k}||$ multiplied by $m_2(T) < 1$. Consequently, if we choose $T^* < \min(T_1, T_2)$, then the operator A is a contraction in the ball $B^T(k_0, \rho)$; i.e., there exists a unique solution of equation (46). Theorem 4.1 is proven.

REFERENCES:

1. Romanov, V. G. *Inverse problems of mathematical physics*. Utrecht: VNU Science Press, The Netherlands, 1987.
2. Hasanov Hasanoglu A., Romanov V. G. *Introduction to Inverse Problems for Differential Equations*. Cham, Springer, 2017, xiii+261 pp.
3. S.N. Antontsev, S.E. Aitghanov, G.R. Ashurova *Aninverse problem for the pseudo-parabolic*

equation with p -Laplacian. 2012. *Evol. Eq. and Cont. Theo.*

4. N. I. Ionkin, "The solution of a certain boundary value problem of the theory of heat conduction with a nonclassical boundary condition," *Differ. Uravn.*, vol. 13, no. 2, pp. 294–304, 1977.

5. K. M. Alroev, T. S. and S. A. Malik, "Determination of a source term for a time fractional diffusion equation with an integral type over-determining condition," *Electronic Journal of Differential Equations* 270, 1–16 (2013).

6. V. Il'in, "How to express basis conditions and conditions for the equiconvergence with trigonometric series of expansions related to non-selfadjoint differential operators," *Computers and Mathematics with Applications* 34, 641–647 (1997).

7. V. L. Kamynin; On the inverse problem of determining the right-hand side of a parabolic equation under an integral overdetermination condition, *Mathematical Notes*, 77 (2005), No.4, 482–493.

8. M.I. Ivanchov, N.V. Saldina Inverse problem for a parabolic equation with strong power degeneration. *Ukr. Math. J.*, 2006. Vol. 58, No. 11. P. 1685–1703

9. J. Janno, A Lorenzi Recovering memory kernels in parabolic transmission problems. *J. Inverse Ill-Posed Probl.*, 2008. Vol. 16, No. 3. P. 239–265.

10. J. Janno, L. Wolfersdorf Inverse problems for identification of memory kernels in heat flow. *J. Inverse Ill-Posed Probl.*, 1996, Vol. 4, No. 1. P. 39–66.

11. D.K. Durdiev, Zh.Zh. Zhumaev, Memory kernel reconstruction problems in the integro-differential equation of rigid heat conductor. *Math. Methods Appl. Sci.*, 2020. Vol. 45, No. 14. P. 8374–8388.

12. D.K. Durdiev, Zh.Z. Nuriddinov, Problem of determining a multidimensional kernel in one parabolic integro-differential equation. *J. Siberian Federal Univ. Math. Phys.*, 2021. Vol. 14, No. 1. P. 117–127.

13. K.S. Amrilloyeva, D.I. Akramova, J.B. Ergashov, Determination of a diffusion coefficient and a source control term for a time fractional diffusion equation with integral type over-determining conditions, October, 2022.

14. D. K. Durdiev, T. R. Suyarov, "Inverse coefficient problem for the 2D wave equation with initial and nonlocal boundary conditions", *Владикавказ. матем. журн.*, 26:2 (2024), 5–25.

15. H.B. Elmuradova, Bir o'lchovli psevdoparabolik integro-differensial tenglama yadrosini aniqlashning teskari masalasi. *Matematika instituti byulleteni*, 2024 7(3), 45–54 bb.

16. D. K. Durdiev, H. B. Elmuradova, A. A. Rakhmonov *Вестн. Сам. гос. техн. ун-та. Сер. Физ.-мат. науки*, 2025, 29:1, 7–20.

KASR TARTIBLI TO'LOQIN TARQALISH TENGLAMASI UCHUN ARALASH MASALA

*G'iyosova Farangis Ulug'bek qizi,
Qarshi davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasr tartibli to'loqin tarqalish tenglamasi uchun 1-aralash masala qaralgan. Bu aralash masalaning yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teorema isbotlangan. Bu masalani yechishda matematik fizikaning keng tarqalgan usullaridan biri Furiye metodi yordamida yechilgan.

Kalit so'zlar: kasr tartibli hosila va integral, aralash masala, Furiye metodi, Caputo ma'nosidagi kasr tartibli hosila.

СМЕШАННАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ УРАВНЕНИЯ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ВОЛН ДРОБНОГО ПОРЯДКА

Аннотация. В статье рассматривается смешанная задача 1 для уравнения распространения волн дробного порядка. Доказана теорема о существовании и единственности решения этой смешанной задачи. Один из распространённых методов математической физики при решении этой задачи решается с помощью метода Фурье.

Ключевые слова: дробная производная и интеграл, смешанная задача, метод Фурье, дробная производная Капуто.

MIXED PROBLEM FOR THE FRACTIONAL-ORDER WAVE PROPAGATION EQUATION

Abstract. This article considers mixed problem 1 for the fractional-order wave propagation equation. The theorem on the existence and uniqueness of a solution to this mixed problem is proved. This problem was solved using one of the common methods in mathematical physics, the Fourier method.

Keywords: fractional derivative and integral, mixed problem, Fourier method, fractional derivative in the sense of Caputo.

Kirish. Kasr hosilalarini o'z ichiga olgan differensial tenglamalarning simmetriya xususiyatlarini o'rganish hozirgi vaqtda anomal kinetikaga ega bo'lgan turli jarayonlarning matematik modellari kabi tenglamalarning tobora keng qo'llanilishi bilan bog'liq holda dolzarb muammo hisoblanadi. Bundan tashqari, klassik butun tartibli hosiladan farqli o'laroq, kasr tartibli hosilalarning bir xil bo'lmagan ko'plab ta'riflari mavjud, bu turli xil kasr tartibli differensial tenglamalarga olib keladi. Ular shaklida bir-biriga yaqin, lekin xususiyatlari jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Funktsiyaga nisbatan funktsiyaning kasr hosilalaridan foydalanib, umuman olganda, o'zgaruvchilarning mumkin bo'lgan almashtirishlar sinfini kengaytirishga imkon beradi. Ularni ekvivalentlik o'zgarishlarining yangi turli sifatida ko'rib chiqadi. Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan ko'pgina matematik olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Bu soha XVIII asr boshlarida paydo bo'lib, o'sha davrda J.Fure, J.Liuvill, B.Rimanlar tomonidan kiritilgan. Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar fizika, biologiya meditsina, iqtisodiyot va moliya, kompyuter fanlari va suniy intellekt sohalarida keng tatbiq etiladi.

Asosiy qism. Aytaulik, $D = (x, t) \in R^2$, $0 < x < l, 0 < t < T$ sohada

$$D_t^\alpha u(x, t) - a^2 u_{xx}(x, t) = f(x, t), \quad 0 < x < l, 0 < t < T \quad (1)$$

Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli tenglamaning

$$u(x, 0) = \varphi(x) \quad 0 \leq x \leq l \quad (2)$$

boshlang'ich shartni va quyidagi

$$u(0, t) = 0 \quad 0 \leq t \leq T \quad (3)$$

$$u(l, t) = 0 \quad 0 \leq t \leq T \quad (4)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasini qaraylik, bu yerda $\varphi(x)$, $f(x, t)$ - berigan funksiyalar, a - o'zgarmas son, T - fiksirlangan son, D_t^α orqali Kaputo ma'nosidagi α -tartibli kasr tartibli hosila belgilangan.

Ta'rif. Agar $u(x, t) \in C[0, l] \times [0, T]$ va $f(x, t)$ funksiyalar uchun $D_t^\alpha u(x, t), u_{xx}(x, t) \in C[0, l] \times [0, T]$ xossalarga ega bo'lib, (1)-(4) ning barcha shartlarini qanoatlantirsa, u holda bu $u(x, t)$ funksiya (1)-(4) masalaning yechimi deyiladi.

Teorema. Aytaylik, $\varphi(x) \in C^2[0, l]$ va bo'lakli-uzluksiz hosilaga ega, hamda $\varphi(0) = \varphi(l) = 0$, $\varphi'(0) = \varphi'(l) = 0$ shartni qanoatlantiruvchi funksiya bo'lsin. U holda (1)-(4) aralash masalaning yechimi mavjud va u quyidagicha ko'rinishga ega:

$$u(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} \varphi_n E_{\alpha, 1} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l} \right)^2 t^\alpha \right) \sin \frac{\pi n}{l} x + \\ + \sum_{n=1}^{\infty} \left(\varphi_n E_{\alpha, 1} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l} \right)^2 t^\alpha \right) + \int_0^t (t - \xi)^{\alpha-1} E_{\alpha, \alpha} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l} \right)^2 (t - \xi)^\alpha \right) f_n(\xi) d\xi \right) \times \sin \frac{\pi n}{l} x$$

Isbot. Teoremani isbotlash uchun xususiy hosilali tenglamalarni yechishda keng tarqalgan usullardan biri o'zgaruvchilarni ajratish, ya'ni Furye metodidan foydalanamiz. (1)-(4) masalaning yechimini quyidagi ko'rinishda izlaymiz,

$$u(x, t) = v(x, t) + w(x, t)$$

bu yerda $v(x, t)$ funksiya

$$\begin{cases} D_t^\alpha v(x, t) - a^2 v_{xx}(x, t) = 0 \\ v(x, 0) = \varphi(x), & 0 \leq x \leq l \\ v(0, t) = v(l, t) = 0, & 0 \leq t \leq T \end{cases} \quad (5)$$

masalaning, $w(x, t)$ funksiya esa

$$\begin{cases} D_t^\alpha w(x, t) - a^2 w_{xx}(x, t) = f(x, t) \\ w(x, 0) = \varphi(x), & 0 \leq x \leq l \\ w(0, t) = w(l, t) = 0, & 0 \leq t \leq T \end{cases} \quad (6)$$

masalaning yechimi.

(1)-(4) masalani yechish uchun yuqoridagi ikkita yordamchi masalani yechish yetarli. Bunda (1)-(4) masalani bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan ikki hol uchun alohida-alohida yechib olamiz (5) masalani yechish uchun Furye usulidan foydalanamiz. Yechimni

$$v(x, t) = T(t) X(x) \neq 0 \quad (7)$$

Ko'rinishda izlaymiz, bunda $X(x)$ - faqat x o'zgaruvchining funksiyasi, $T(t)$ - esa faqat t o'zgaruvchining funksiyasidir. (7) ni (5) tenglamaga olib borib qo'yamiz

$$D_t^\alpha T(t) X(x) = a^2 T(t) X''(x) \quad (8)$$

$$\frac{D_t^\alpha T(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)} \quad (9)$$

tenglikni hosil qilamiz, (9) ko'rinishdagi funksiya (8) tenglamaning yechimi bo'lishi uchun (9) ayniyatdan iborat bo'lishi kerak, ya'ni $0 < t < T$ erkli o'zgaruvchining barcha qiymatlarida o'rinli bo'lishi shart bo'ladi. (9) tenglikning chap tomoni faqat t o'zgaruvchiga, o'ng tomoni faqat x o'zgaruvchiga bog'liq. Agar biz x o'zgaruvchining biror qismini tanlab t o'zgaruvchini o'zgartirsak (9) tenglikning o'ng qismi va aksincha t o'zgaruvchining biror qismini tanlab x o'zgaruvchini o'zgartirsak (9) tenglikning chap qismi

o'zgaras bo'ladi. Ushbu tenglik faqat tenglikning ikkala tomoni ham o'zgaras songa teng bo'lgandagina o'rinli bo'ladi. Demak, quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$\frac{D_t^\alpha T(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)} = -\lambda \quad (10)$$

bu yerda λ -o'zgaras bo'lib, uning ishorasi haqida hech qanday talab qo'yilmagani uchun keyingi hisoblar qulay bo'lishi uchun minus ishora bilan olamiz.

(10) tenglikdan $X(x)$ va $T(t)$ noldan farqli funksiyalarni aniqlash uchun

$$D_t^\alpha T(t) + \lambda a^2 T(t) = 0 \quad (11)$$

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0 \quad (12)$$

oddiy differensial tenglamalarga kelimiz.

Chegaraviy shartlardan foydalanib quyidagi tenglikka ega bo'lamiz,

$$v(0, t) = T(t) X(0) = 0$$

$$v(l, t) = T(t) X(l) = 0$$

tengliklarga ega bo'lamiz. Bundan esa, $T(t)$ noldan farqli funksiya bo'lganligi uchun $X(x)$ funksiya uchun

$$X(0) = X(l) = 0$$

qo'shimcha shartlar qanoatlantirilishi kelib chiqadi.

Shunday qilib, $X(x)$ funksiyani aniqlash uchun xos qiymat haqidagi soda masalani hosil qilamiz: λ parametrning shunday qiymatlarini topish kerakki natijada

$$\begin{cases} X''(x) + \lambda X(x) = 0 \\ X(0) = X(l) = 0 \end{cases} \quad (13)$$

masala notrivial yechimga ega bo'lsin. λ parametrning bunday qiymatlariga xos son, unga mos notrivial yechimga esa berilgan masalaning xos funksiyasi deb ataladi. Ushbu keltirilgan xos son va xos funksiyasi masalasiga Shturm-Liuvill masalasi ham deyiladi. λ parametrning manfiy, nol va musbat bo'lgan hollari qarab chiqiladi. $\lambda < 0$ va $\lambda = 0$ bo'lgan hollarda $X(x) = 0$ yechimga ega bo'ladi. Xos funksiya noldan farqli yechimga ega bo'lmaydi. Bizga nol yechim kerak emas. Shu sababli $\lambda > 0$ bo'lgan holni qaraymiz. Bu holda (13) sistemaning yechimi quyidagicha aniqlanadi.

$$X(x) = c_1 \cos \sqrt{\lambda} x + c_2 \sin \sqrt{\lambda} x$$

Chegaraviy shartlarga ko'ra

$$X(0) = c_1 = 0$$

$$X(l) = c_2 \sin \sqrt{\lambda} l = 0$$

$$c_2 \neq 0 \text{ demak, } \sin \sqrt{\lambda} l = 0 \text{ bundan } \lambda = \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 \text{ ekanligi kelib chiqadi, bu yerda } n=1,2,3,\dots$$

chunki λ va l musbat sonlar. Demak, berilgan masala notrivial yechimga $\lambda = \lambda_n = \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2$ xos qiymatlardagina ega va u quyidagicha bo'ladi

$$X_n(x) = c_n \sin \frac{\pi n}{l} x$$

Ixtiyoriy o'zgaras koeffitsientni $c_n = 1$ deb tanlab olsak yechim

$$X_n(x) = \sin \frac{\pi n}{l} x$$

ko'rinishda bo'ladi.

Endi esa, $\lambda_n = \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2$ xos qiymatga mos xos funksiyani $T_n(t)$ lar uchun quyidagi ifodalarni topamiz:

$$v(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} T_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x \quad (14)$$

(14) ifodani (5) masalaga olib borib qo'ysak, quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} D_t^\alpha T_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x + a^2 \sum_{n=1}^{\infty} \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 T_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x = 0$$

Bundan esa

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left[D_t^\alpha T_n(t) + a^2 \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 T_n(t) \right] \sin \frac{\pi n}{l} x = 0$$

tenglikni hosil qilamiz. Shunday qilib, biz quyidagi masalaga kelamiz:

$$\begin{cases} D_t^\alpha T_n(t) + a^2 \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 T_n(t) = 0 \\ T_n(0) = \varphi_n \end{cases} \quad (15)$$

(15) Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli chiziqli differensial tenglama uchun Koshi masalasining yechimiga asosan quyidagicha bo'ladi:

$$T_n(t) = \varphi_n E_{\alpha,1} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) \quad (16)$$

Xususi yechimlar yig'indisi yana yechim bo'lganligi sababli

$$v(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} T_n(t) X_n(x)$$

funksiya ham yechim bo'ladi. Shunday qilib (5) masalaning formal yechimi

$$v(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} \varphi_n E_{\alpha,1} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) \sin \frac{\pi n}{l} x \quad (17)$$

ko'rinishda bo'ladi.

Endi bir jinsli bo'lmagan holni qarab chiqamiz. (6) masalani yechish uchun ham Furiye usulidan foydalanamiz, ya'ni $w(x, t)$ funksiyani

$$w(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} T_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x$$

ko'rinishda izlaymiz. Uni (6) tenglamaga olib borib qo'yamiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty} D_t^\alpha T_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x + \left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 \sum_{n=1}^{\infty} T_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x = f(x, t)$$

$$f(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} f_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x \quad \text{ga teng ekanligidan}$$

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left(D_t^\alpha T_n(t) + \left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 T_n(t) \right) \sin \frac{\pi n}{l} x = \sum_{n=1}^{\infty} f_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x$$

tenglikni hosil qilamiz. Bundan

$$D_t^\alpha T_n(t) + \left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 T_n(t) = f_n(t)$$

ekanligi kelib chiqadi. Boshlang'ich shartni hisobga olsak quyidagi

$$\begin{cases} D_t^\alpha T_n(t) + \left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 T_n(t) = f_n(t) \\ T_n(0) = \varphi_n \end{cases} \quad (18)$$

masalaga kelamiz. (18) masalaning yechimi Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli chiziqli differensial tenglama yechimi kabi bo'ladi, ya'ni

$$T_n(t) = \varphi_n E_{\alpha,1} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) + \int_0^t (t-\xi)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 (t-\xi)^\alpha \right) f_n(\xi) d\xi. \quad (19)$$

Shunday qilib, (6) masala quyidagi formal yechimga

$$\text{ega: } w(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} \left(\varphi_n E_{\alpha,1} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) + \int_0^t (t-\xi)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 (t-\xi)^\alpha \right) f_n(\xi) d\xi \right) \sin \frac{\pi n}{l} x.$$

Yechimlarni umumlashtirib, (1)-(4) masala uchun quyidagi yechimga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} u(x,t) &= v(x,t) + w(x,t) = \\ &= \sum_{n=1}^{\infty} \varphi_n E_{\alpha,1} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) \sin \frac{\pi n}{l} x + \\ &+ \sum_{n=1}^{\infty} \left(\varphi_n E_{\alpha,1} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) + \int_0^t (t-\xi)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 (t-\xi)^\alpha \right) f_n(\xi) d\xi \right) \sin \frac{\pi n}{l} x \end{aligned}$$

Xulosa. Ushbu aralash masalani yechishda quyidagi natijalarga kelindi:

Teorema. Aytaylik, $\varphi(x) \in C^2[0,l]$ va bo'lakli-uzluksiz hosilaga ega, hamda $\varphi(0) = \varphi(l) = 0$

$\varphi'(0) = \varphi'(l) = 0$ shartni qanoatlantiruvchi funksiya bo'lsin. U holda (1)-(4) aralash masalaning yechimi mavjud va u quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned} u(x,t) &= \sum_{n=1}^{\infty} \varphi_n E_{\alpha,1} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) \sin \frac{\pi n}{l} x + \\ &+ \sum_{n=1}^{\infty} \left(\varphi_n E_{\alpha,1} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 t^\alpha \right) + \int_0^t (t-\xi)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha} \left(-\left(\frac{\pi n a}{l}\right)^2 (t-\xi)^\alpha \right) f_n(\xi) d\xi \right) \times \sin \frac{\pi n}{l} x \end{aligned}$$

ADABIYOTLAR:

1. Kilbas A.A., Srivastava H.M., Trujillo J.J., *Theory and Applications of Fractional Differential Equations*, Elsevier (2006).
2. R. Ashurov, Yu. Fayziyev, "On the nlocal boundary value problems for time -fractional equations,"// *Fractal and Fractional*, 6, 41 (2022).
3. A.V. Pskhu *The Stankovich Integral transform and Its Applications*, Special Functions and Analysis of Differential Equations, 2020, p.16.
4. Umarov S., Hahn M., Kobayashi K. *Beyond the triangle: Browian motion, Ito calculus, and Fokker-Plank equation-fractional generalizations.* // World Scientifist. 2017.

NEFT QUDUQLARINI SHTANGLI NASOSLAR YORDAMIDA ISHLATISHDA
GIDRODINAMIK BOSIM

Akilov Jaxon Akilovich,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand
davlat arxitektura-qurilish universiteti professori,
fizika-matematika fanlari doktori
Samarqand, 140147, Lolazor k.,70.
jaxon.akilov@mail.ru

Djabbarov Mamasoli Sadikovich,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand
davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti,
fizika-matematika fanlari nomzodi
m.s.jabborov1954@mail.ru

G‘aybulov Yuldosh Shermanovich,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
ygaybulov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada neft qudug‘ini chuqur joylashgan shtangli nasoslar yordamida ishlatishda suyuqlik qovushoq-elastik xususiyatlarining quduqdagi gidrodinamik bosimga ta’siri qaralgan. Jarayonning matematik modeli tuzilib, uni ifodalovchi matematik masala Furiye va Laplas almashtirishi usullari bilan yechilgan. Olingan formulalar asosida, neft relaksatsiya xususiyatlarining plunjerga bo‘lgan gidrodinamik bosimga ta’siri o‘rganilgan. Agar dastlabki momentda plunjer tezligi keskin o‘zgarsa, bosimning o‘zgarishi impulsli xususiyatga ega bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Aniqlanganki, suyuqlikning qovushoq elastik xususiyatlari gidrodinamik bosim maksimumining “kechikishiga” olib keladi, ushbu xususiyatlar oshgani sayin, qovushoq va qovushoq-elastik suyuqliklar uchun bosim qiymatlari farqi ortadi.

Kalit so‘zlar: plunjer, gidrodinamik bosim, qovuhoq-elastik suyuqlik, relaksatsiya parametrlari, shtangli nasos, Furiye usuli, Laplas almashtirishi.

ГИДРОДИНАМИЧЕСКОЕ ДАВЛЕНИЕ ПРИ ЭКСПЛУАТАЦИИ НЕФТЯНЫХ
СКВАЖИН ШТАНГОВЫМИ НАСОСАМИ

Аннотация. В статье рассматривается влияние вязкоупругих свойств жидкости на гидродинамическое давление нефти при эксплуатации нефтяной скважины глубинными штанговыми насосами. Построена математическая модель процесса и решена представляющая её математическая задача с использованием методов преобразований Фурье и Лапласа. На основе полученных формул исследовано влияние релаксационных свойств нефти на гидродинамическое давление на плунжер. Установлено, что при резком изменении скорости плунжера в начальный момент, изменение давления может иметь импульсный характер. Показано, что вязкоупругие свойства жидкости приводят к «запаздыванию» достижения максимума гидродинамического давления, причём с ростом этих свойств разница в значениях давления для вязких и вязкоупругих жидкостей увеличивается.

Ключевые слова: плунжер, гидродинамическое давление, вязкоупругая жидкость, параметры релаксации, штанговый насос, метод Фурье, преобразование Лапласа.

HYDRODYNAMIC PRESSURE DURING OIL WELL OPERATION WITH SUCKER
ROD PUMPS

Abstract. The article discusses the influence of viscoelastic fluid properties on the hydrodynamic pressure of oil during wellbore operation using sucker rod pumps. A mathematical model of the process is constructed, and the corresponding mathematical problem is solved using Fourier and Laplace transform methods. Using the resulting formulas, the influence of the relaxation properties of oil on the hydrodynamic pressure on the plunger is studied. It is established that with a sharp change in plunger velocity at the initial moment, the pressure change can be impulsive. It is shown that the viscoelastic properties of the fluid lead to a "delay" in reaching the maximum hydrodynamic pressure, and that as these properties increase, the difference in pressure values for viscous and viscoelastic fluids increases.

Keywords: plunger, hydrodynamic pressure, viscoelastic fluid, relaxation parameters, rod pump, Fourier method, Laplace transform.


Kirish. Neft quduqlarini shtangali nasoslar bilan ishlatishda, plunjerga ko'taruvchi trubalardagi suyuqlik ustuni tufayli hosil bo'ladigan bosim ta'sir qiladi. Plunjer yuqoriga qarab harakat qilganda, shtanglar osilgan nuqta harakatlana boshlagan paytdan boshlab, plunjer suyuqlikning og'irlik yukini ko'tara boshlaydi. Ushbu yuk ta'sirida shtanglar cho'zilib, bu ularning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Plunjerning tezligi o'zgaruvchan bo'lgani uchun, chuqurlikdagi quduq nasosining silinri va shtanglar orasidagi halqasimon maydonida suyuqlik harakati nostatsionar bo'ladi. U plunjer ustidagi bosimda aks etadi. Mazkur maqolada, plunjer yuqoriga qarab harakatlanishi paytida unga bo'lgan gidrodinamik bosimga neft qovushoq-elastik xususiyatlarining ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan.

Eksperimental tadqiqotlar ko'rsatadiki, tarkibida asfalten-smola moddalar bo'lgan neftlar relaksatsiya xususiyatiga ega va ular qovushoq-elastik suyuqliklar hisoblanadi [1-2]. Neft quduqlari ishlashining ko'plab muhim ko'rsatkichlari va texnologik uskunalarining ishlashi neftning reologik xususiyatlariga bog'liq. Qovushoq-elastik neftning reologik xususiyatlari gidrodinamik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun neft konlarini o'zlashtirish va quduqni ishlatishda ularni hisobga olish zarur [3]. Neftni qazib olish har xil turdagi nasos agregatlari yordamida amalga oshiriladi. Ulardan eng keng tarqalgani chuqur joylashgan shtangli nasoslardir. Ushbu agregatlar bilan ishlash tajribasi ulardan katta chuqurlikdagi o'rta va yuqori oqimli quduqlarda samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Turli geologik va fizik sharoitlarda ularning ishonchliligi neft qazib olish ko'rsatkichlarini ko'p jihatdan aniqlaydi. Shtangli plunjerli nasoslar yordamida neft quduqlarini ishlatishda matematik modellashirish masalalari [4-5] da qaralgan. [4] da murakkab sharoitlarda ishlaydigan plunjerli nasosning matematik modeli taklif qilingan. [5] da yuqori qovushoqli neftni chiqarish uchun pnevmatik kompensatorga ega shtangli blokning matematik modeli ishlab chiqilgan, quduq bo'ylab gidrodinamik bosimni barqarorlashtirish tahlil qilingan.


Shtangli nasoslar yordamida quduqni ishlatish jarayonida neft qovushoq-elastik xossalari gidrodinamik bosimga ta'sirini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi. Chuqur quduq nasosining shtanglari va silindri orasidagi halqasimon maydonda suyuqlikning nostatsionar harakati masalalari [6-9] da qaralgan. [6] da ikkita doiraviy truba orasidagi halqasimon bo'shliq tekis bo'shliq sifatida modellashirilgan va neft qovushoq Nyuton suyuqligi deb qaralgan. Masala taqribiy usulda yechilgan. Bu masalaning aniq yechimi qovushoq suyuqlik va qovushoq-elastik Maksvell suyuqligi uchun [7, 8] da keltirilgan. Biroq, ko'taruvchi truba va shtanglar orasidagi halqali bo'shliqni tekis bo'shliq sifatida modellashirish olingan formulalarni amalda qo'llashni cheklaydi. Yuqorida aytilgan farazdan foydalanmagan holda masala qovushoq va Maksvell qovushoq-elastik suyuqligi uchun [9] da qaralgan.

Biroq, qovushoq-elastik neftlar qazib olinadigan quduqlarni ishlatish jarayonda gidrodinamik bosimni hisoblashda nafaqat kuchlanishning relaksatsiyasi vaqti, balki tezlikning kechikishi vaqtini ham hisobga olish zarur.

Masalaning qo'yilishi. Ko'taruvchi truba va shtanglar orasidagi halqasimon oraliqda plunjerga neftning gidrodinamik bosimini aniqlash masalasini qaraymiz. 1-rasmda chuqur quduq nasosining tipik konfiguratsiyasi, 2-rasmda qo'zg'almas sistemaga nisbatan ko'taruvchi truba va shtanglar orasidagi halqali bo'shliqda suyuqlik tezligining taqsimlanishi ko'rsatilgan.



1-rasm. Shtangali nasos tizimining konfiguratsiyasi



2-rasm. Qo'zg'almas sistemaga nisbatan ko'taruvchi truba va shtanglar orasidagi halqali bo'shliqda suyuqlik tezligining taqsimlanishi. $v_p(t)$ – plunjer tezligi

Jarayonni matematik modellashtrish uchun suyuqlik va trubalarga nisbatan umumiy qabul qilingan farazlardan foydalanamiz: ko'taruvchi trubaning yuzasida suyuqlikning nisbiy tezligi nolga teng; harakatlanuvchi truba(lar) yuzasida esa u truba tezligiga teng; oqimning silliqqligi saqlanadi; suyuqlik siqilmas; boshlang'ich va oxirgi effektlar e'tiborga olinmaydi.

Plunjerga umumiy bosim $p(t)$ quyidagicha bo'ladi:

$$p(t) = \Delta p(t) + \rho g(L - h) + p_0, \quad (1)$$

bu yerda t - vaqt; $\Delta p(t)$ - ko'taruvchi trubada suyuqlikning nostatsionar harakati paytida gidrodinamik bosim (bosim o'zgarishi); p_0 - quduq og'zidagi bosim; L - suyuqlikning ko'tarilgan ustunining balandligi; h -

nasosining cho'mish chuqurligi; ρ - neftning zichligi; g - erkin tushish tezlashishi, $g = 9.81 \text{ m/s}^2$.

Suyuqlikning nostatsionar laminar oqimdagi $v(r, t)$ tezligi, doiraviy simmetriyani hisobga olgan holda, quyidagi tenglamadan aniqlanadi

$$\rho \frac{\partial v}{\partial t} = q(t) + \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} (r \tau), \quad (r_2 < r < R), \quad (2)$$

bu yerda R - radial koordinata; r - ko'taruvchi trubaning radiusi; r_2 - shtanglar radiusi; $q(t) = -\partial p / \partial z = \Delta p / L$ ko'taruvchi trubaning o'qi bo'ylab trubaning L uzunlikdagi qismiga mos bosim o'zgarishi; τ - urinma kuchlanish.

(1) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$p(t) = Lq(t) + \rho g(L - h) + p_0.$$

Suyuqlikning reologik tenglamasini quyidagicha olamiz:

$$\left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t}\right) \tau(r, t) = \mu \left(1 + \lambda_2 \frac{\partial}{\partial t}\right) \frac{\partial v}{\partial r}, \quad (3)$$

bu yerda μ - dinamik qovushoqlik; λ_1 - kuchlanishning relaksatsiya vaqti; λ_2 - tezlikning kechikish vaqti.

(3) tenglama $\lambda_1 > 0$, $\lambda_2 > 0$ da Oldroydning qovushoq-elastik suyuqlik modelini ifodalaydi ($\lambda_1 > \lambda_2$). Nol boshlang'ich shartda siljish kuchlanishi uchun (3) tenglamaning yechimi quyidagicha:

$$\tau(r, t) = \mu \frac{\lambda_2}{\lambda_1} \frac{\partial v}{\partial r} + \frac{\mu}{\lambda_1} \int_0^t e^{-\frac{t-\xi}{\lambda_1}} \frac{\partial v(r, \xi)}{\partial r} d\xi. \quad (4)$$

(4) ni (1) ga qo'yib, suyuqlik tezligi uchun tenglama hosil qilamiz:

$$\rho \frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\lambda_2}{\lambda_1} \frac{\mu}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v}{\partial r} \right) + \frac{\lambda_1 - \lambda_2}{\lambda_1^2} \frac{\mu}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial}{\partial r} \int_0^t e^{-\frac{t-\xi}{\lambda_1}} v(r, \xi) d\xi \right) + q(t). \quad (5)$$

(1) va (3) dan foydalanib, suyuqlik tezligi uchun bitta differensial tenglama hosil qilish mumkin:

$$\left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t}\right) \frac{\partial v}{\partial t} = \left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t}\right) q(t) + \mu \left(1 + \lambda_2 \frac{\partial}{\partial t}\right) \left[\frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v}{\partial r} \right) \right], \quad (r_2 < r < R). \quad (6)$$

Dastlabki vaqtda suyuqlik harakatlanmaydi, shuning uchun (7) uchun boshlang'ich shartlar

$$v(r, 0) = 0, \quad v_t(r, 0) = 0, \quad r_2 \leq r \leq R. \quad (7)$$

bo'ladi. Qabul qilingan farazlarga muvofiq, (7) tenglama uchun chegaraviy shartlar

$$v(r_2, t) = v_p(t), \quad v(R, t) = 0, \quad (t > 0). \quad (8)$$

bo'ladi, bu yerda $v_p(t)$ - plunjerning harakat tezligi. Gidrodinamik bosimni aniqlashda qo'shimcha shart sifatida suyuqlik oqimi balansi tenglamasidan foydalanamiz:

$$Q = \pi(r_1^2 - r_2^2) v_p(t) = 2\pi \int_{r_2}^R r v(r, t) dr, \quad (9)$$

bu yerda r_1 - plunjer radiusi, Q - suyuqlik sarfi.

(1)-(9) munosabatlar qaralayotgan jarayonning matematik modelini ifodalaydi.

Masalani yechish usuli. Quyidagi o'lchamsiz miqdorlarni kiritamiz:

$$\bar{t} = \frac{U_0}{R} t, \quad \bar{r} = \frac{r}{R}, \quad \bar{v}(\bar{r}, \bar{t}) = \frac{v(r, t)}{U_0}, \quad \bar{v}_p(\bar{t}) = \frac{v_p(t)}{U_0}, \quad \bar{q}(\bar{t}) = \frac{R}{\rho U_0^2} q(t),$$

bu yerda U_0 – tezlikning biror xarakterli qiymati. Unda, o'lcamsiz miqdorlarda quyidagilarni olamiz:

$$\frac{\partial \bar{v}}{\partial \bar{t}} = \frac{c_2}{\text{Re}} \frac{1}{\bar{r}} \frac{\partial}{\partial \bar{r}} \left(\bar{r} \frac{\partial \bar{v}}{\partial \bar{r}} \right) + \frac{c_1}{\text{Re}} \frac{1}{\bar{r}} \frac{\partial}{\partial \bar{r}} \left(\bar{r} \frac{\partial}{\partial \bar{r}} \int_0^{\bar{t}} \bar{v}(\bar{r}, \xi) e^{-\frac{\bar{t}-\xi}{\bar{\lambda}_1}} d\xi \right) + \bar{q}(\bar{t}), \quad (\alpha < \bar{r} < 1).$$

$$\left(1 + \bar{\lambda}_1 \frac{\partial}{\partial \bar{t}} \right) \frac{\partial \bar{v}}{\partial \bar{t}} = \frac{1}{\text{Re}} \left(1 + \bar{\lambda}_2 \frac{\partial}{\partial \bar{t}} \right) \left[\frac{1}{\bar{r}} \frac{\partial}{\partial \bar{r}} \left(\bar{r} \frac{\partial \bar{v}}{\partial \bar{r}} \right) \right] + \left(1 + \bar{\lambda}_1 \frac{\partial}{\partial \bar{t}} \right) \bar{q}(\bar{t}), \quad (\alpha < \bar{r} < 1),$$

$$\bar{v}(\bar{r}, 0) = 0, \quad \bar{v}'_{\bar{t}}(\bar{r}, 0) = 0, \quad (\alpha \leq \bar{r} \leq 1);$$

$$\bar{v}(\alpha, \bar{t}) = \bar{v}_p(\bar{t}), \quad \bar{v}(1, \bar{t}) = 0, \quad (\bar{t} > 0).$$

$$\int_{\alpha}^1 \bar{r} \bar{v}(\bar{r}, \bar{t}) d\bar{r} = \frac{\alpha_*^2}{2} \bar{v}_p(\bar{t}),$$

bu yerda $\alpha = r_2 / R$, $\alpha_1 = r_1 / R$, $\alpha_*^2 = \alpha_1^2 - \alpha^2$, $c_1 = c(1 - c_2)$, $c = 1 / \bar{\lambda}_1$, $c_2 = \bar{\lambda}_2 / \bar{\lambda}_1$,

$$\bar{\lambda}_1 = \frac{U_0}{R} \lambda_1, \quad \bar{\lambda}_2 = \frac{U_0}{R} \lambda_2, \quad \text{Re} = \frac{\rho R U_0}{\mu}.$$

Masalani yechish jarayonida, yozuvlar qulay bo'lishi uchun, o'lcamsiz miqdorlar ustidagi "-" belgini hozircha qo'ymay yozamiz. Ya'ni quyidagicha:

$$\frac{\partial v}{\partial t} = \frac{c_2}{\text{Re}} \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v}{\partial r} \right) + \frac{c_1}{\text{Re}} \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial}{\partial r} \int_0^t v(r, \xi) e^{-\frac{t-\xi}{\lambda_1}} d\xi \right) + q(t), \quad (\alpha < r < 1). \quad (10)$$

$$\left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t} \right) \frac{\partial v}{\partial t} = \frac{1}{\text{Re}} \left(1 + \lambda_2 \frac{\partial}{\partial t} \right) \left[\frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v}{\partial r} \right) \right] + \left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t} \right) q(t), \quad (\alpha < r < 1) \quad (11)$$

$$v(r, 0) = 0, \quad v'_t(r, 0) = 0, \quad (\alpha \leq r \leq 1); \quad v(\alpha, t) = v_p(t), \quad v(1, t) = 0, \quad (t > 0). \quad (12)$$

$$\int_{\alpha}^1 r v(r, t) dr = \frac{\alpha_*^2}{2} v_p(t). \quad (13)$$

(12) ni r ga ko'paytirib, $[\alpha, 1]$ oraliqda integrallab, (13) dan foydalanib, quyidagini olamiz:

$$q(t) = \frac{\alpha_*^2}{1 - \alpha^2} v'_p(t) - \frac{1}{\text{Re}} \frac{2c_2}{1 - \alpha^2} \left[\frac{\partial v(1, t)}{\partial r} - \alpha \frac{\partial v(\alpha, t)}{\partial r} \right] - \frac{1}{\text{Re}} \frac{2c_1}{1 - \alpha^2} \int_0^t e^{-c(t-\xi)} \left[\frac{\partial v(1, \xi)}{\partial r} - \alpha \frac{\partial v(\alpha, \xi)}{\partial r} \right] d\xi. \quad (14)$$

(17) ni (12) ga qo'yib, suyuqlik tezligi uchun quyidagi tenglamalarni hosil qilamiz:

$$\frac{\partial v}{\partial t} = \frac{c_2}{\text{Re}} \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v}{\partial r} \right) - \frac{1}{\text{Re}} \frac{2c_2}{1 - \alpha^2} \left[\frac{\partial v(1, t)}{\partial r} - \alpha \frac{\partial v(\alpha, t)}{\partial r} \right] + \frac{c_1}{\text{Re}} \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left[r \int_0^t e^{-c(t-\xi)} \frac{\partial v(r, \xi)}{\partial r} d\xi \right] - \frac{1}{\text{Re}} \frac{2c_1}{1 - \alpha^2} \int_0^t e^{-c(t-\xi)} \left[\frac{\partial v(1, \xi)}{\partial r} - \alpha \frac{\partial v(\alpha, \xi)}{\partial r} \right] d\xi + \frac{\alpha_*^2}{1 - \alpha^2} v'_p(t), \quad (15)$$

Bu tenglamani Furiyening o'zgaruvchilarni almashtirish usuli bilan yechamiz. Buning uchun $v(r, t) = z(r)U(t)$ deb olamiz. (15) ga mos birjinsli tenglama uchun, nol chegaraviy shartlarda, quyidagi Bessel tenglamasi uchun Shturm-Liuvvil masalasini hosil qilamiz:

$$\frac{1}{r} \frac{d}{dr} \left(r \frac{dz}{dr} \right) + \beta^2 z = \frac{2}{1 - \alpha^2} [z'(1) - \alpha z'(\alpha)], \quad z(\alpha) = 0, \quad z(1) = 0. \quad (16)$$

$\beta = 0$ (16) masalaning xos qiymati. Unga mos $z_0(r)$ xos funksiyani (13) ni hisobga olgan holda - quyidagi ko'rinishda topish topish:

$$z_0(r) = A_\alpha \left[1 - r^2 + (1 - \alpha^2) \frac{\ln r}{\ln \alpha} \right], \quad (17)$$

bu yerda $A_\alpha = \frac{(2\alpha_*^2 + \alpha^2 - 1) \ln \alpha}{(1 - \alpha^2)[1 - \alpha^2 + (1 + \alpha^2) \ln \alpha]}.$

Izlanayotgan noma'lum funksiyalarni quyidagicha ifodalaymiz

$$v(r, t) = v_0(r, t) + v_1(r, t), \quad (18)$$

$$q(t) = q_0(t) + q_1(t), \quad (19)$$

bu yerda $v_0(r, t) = z_0(r)v_p(t)$ (15) tenglamaga mos bir jinsli tenglamaning nol boshlang'ich va chegaraviy shartlardagi yechimi. $q_0(t)$ funksiya (14) ga $v_0(r, t)$ ni qo'yib aniqlanadi :

$$q_0(t) = \frac{\alpha_*^2}{1 - \alpha^2} v_p'(t) + \frac{4A_\alpha}{\text{Re}} \left[c_2 v_p'(t) + c_1 \int_0^t e^{-c(t-\xi)} v_p'(\xi) d\xi \right]. \quad (20)$$

$v_1(r, t)$, $q_1(t)$ funksiyalar

$$\left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t} \right) \frac{\partial v_1}{\partial t} = \frac{1}{\text{Re}} \left(1 + \lambda_2 \frac{\partial}{\partial t} \right) \left[\frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v_1}{\partial r} \right) \right] + \left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t} \right) q_1(t), \quad (\alpha < r < 1). \quad (21)$$

tenglamalarning

$$v_1(r, 0) = 0, \quad v_{1r}(r, 0) = 0, \quad (\alpha \leq r \leq 1); \quad v_1(\alpha, t) = v_p(t), \quad v_1(1, t) = 0, \quad (t > 0). \quad (22)$$

$$\int_\alpha^1 r v_1(r, t) dr = \frac{1 - \alpha^2}{4} v_p(t), \quad (23)$$

shartlarni qanoatlantiruchi yechimi. Bu yerda (23) tenglik (13) ni hisobga olgan holda (15) dan kelib chiqadi.

(21)-(23) masalani Laplas integral almashtirishi yordamida yechamiz[10]:

$$\tilde{v}_1(r, s) = \int_0^{+\infty} e^{-st} v_1(r, t) dt, \quad \tilde{v}_p(s) = \int_0^{+\infty} e^{-st} v_p(t) dt, \quad \tilde{q}_1(s) = \int_0^{+\infty} e^{-st} q_1(t) dt.$$

Boshlang'ich shartlarni hisobga olib, Laplas tasvirida

$$\frac{1}{\text{Re}} \frac{1}{r} \frac{d}{dr} \left(r \frac{d\tilde{v}_1}{dr} \right) - k^2 \tilde{v}_1(r, s) = -\frac{k^2}{s} \tilde{q}_1(s), \quad (\alpha < r < 1) \quad (24)$$

tenglamani olamiz. Uning uchun chegaraviy shartlar quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\tilde{v}_1(0, s) = \tilde{v}_p(s), \quad \tilde{v}_1(1, s) = 0, \quad (25)$$

bu yerda $k = \sqrt{\text{Re } s (1 + \lambda_1 s) / (1 + \lambda_2 s)}$. (23) tenglik Laplas tasvirida quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\int_\alpha^1 r \tilde{v}_1(r, s) dr = \frac{1 - \alpha^2}{4} \tilde{v}_p(s). \quad (26)$$

(24) tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha yozish mumkin:

$$\tilde{v}_1(r, s) = C_1 J_0(ikr) + C_2 Y_0(ikr) + \frac{\tilde{q}_1(s)}{s},$$

bu $J_0(x)$, $Y_0(x)$ - nolinch va birinchi turdagi Bessel funksiyalari. C_1 , C_2 o'zgarmlarni (25) shartdan topib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\tilde{v}_1(r, s) = \frac{1}{D_\alpha(ik)} \cdot \left\{ \frac{\tilde{q}_1(s)}{s} [D_\alpha(ik) + d_2(ik)J_0(ikr) - d_1(ik)Y_0(ikr)] + \right. \\ \left. + \tilde{v}_p(s) \cdot [Y_0(ik)J_0(ikr) - J_0(ikr)Y_0(ikr)] \right\}, \quad (27)$$

$$\tilde{q}_1(s) = s \tilde{v}_p(s) \cdot \tilde{f}(s), \quad (28)$$

bu yerda $d_1(x) = J_0(\alpha x) - J_0(x)$; $d_2(x) = Y_0(\alpha x) - Y_0(x)$; $D_\alpha(x) = J_0(\alpha x)Y_0(x) - J_0(x)Y_0(\alpha x)$.

$$\tilde{f}(s) = \frac{\varphi(ik)}{\psi(ik)}; \quad \varphi(x) = \frac{1-\alpha^2}{4} x D_\alpha(x) + Y_0(x) d_3(x) - J_0(x) d_4(x);$$

$$\psi(x) = \frac{1-\alpha^2}{2} x D_\alpha(x) - d_2(x) d_3(x) + d_1(x) d_4(x);$$

$$d_3(x) = \alpha J_1(\alpha x) - J_1(x); \quad d_4(x) = \alpha Y_1(\alpha x) - Y_1(x),$$

$J_1(x)$, $Y_1(x)$ - birinchi tartibli birinchi va ikkinchi tur Bessel funktsiyalari.

(28) tasvirda Laplas originaliga o'tib, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \bar{q}(\bar{t}) = & \frac{\alpha_*^2}{1-\alpha^2} \bar{v}_p'(\bar{t}) + \frac{4A_\alpha}{\text{Re}} \left[c_2 \bar{v}_p(\bar{t}) + c_1 \int_0^{\bar{t}} e^{-c(\bar{t}-\xi)} \bar{v}_p(\xi) d\xi \right] - \\ & - \frac{4}{\text{Re}} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\beta_n \varphi_n}{C_n \psi_{1n}} \int_0^{\bar{t}} \bar{v}_p'(\xi) e^{-a_n(\bar{t}-\xi)} (A_n \text{ch} b_n(\bar{t}-\xi) + B_n b_n \text{sh} b_n(\bar{t}-\xi)) d\xi, \end{aligned} \quad (29)$$

bu yerda β_n

$$\frac{1-\alpha^2}{2} \beta D_\alpha(\beta) - d_2(\beta) d_3(\beta) + d_1(\beta) d_4(\beta) = 0$$

tenglamaning musbat ildizlari;

$$\psi_{1n} = (1-\alpha^2) D_\alpha(\beta_n) + \frac{1-\alpha^2}{2} \beta_n [\alpha d_7(\beta_n) + d_8(\beta_n)] + d_1(\beta_n) d_6(\beta_n) - d_2(\beta_n) d_5(\beta_n),$$

$$\varphi_n = \varphi(\beta_n), \quad d_5(x) = \alpha^2 J_0(\alpha x) - J_0(x); \quad d_6(x) = \alpha^2 Y_0(\alpha x) - Y_0(x);$$

$$d_7(x) = J_0(x) Y_1(\alpha x) - J_1(\alpha x) Y_0(x); \quad d_8(x) = J_1(x) Y_0(\alpha x) - J_0(\alpha x) Y_1(x);$$

$$a = 1/(2\bar{\lambda}_1), a_n = a(1 + \bar{\lambda}_2 x_n^2), b_n = \sqrt{a_n^2 - 2a x_n^2}. \quad x_n = \beta_n / \sqrt{\text{Re}}.$$

$$A_n = 1 + 2\bar{\lambda}_2 x_n^2 (2 + a\bar{\lambda}_2^2 x_n^2) + (\bar{\lambda}_1 + \bar{\lambda}_2)(\bar{\lambda}_2(a_n^2 + b_n^2) - 2a_n) - 4\bar{\lambda}_2^2 a_n x_n^2;$$

$$B_n = 2(\bar{\lambda}_2 - \bar{\lambda}_1)(\bar{\lambda}_2 a_n - 1);$$

$$C_n = 1 + 4\bar{\lambda}_1 x_n^2 + \bar{\lambda}_2 x_n^4 + 2\bar{\lambda}_1 \bar{\lambda}_2 (a_n^2 + b_n^2) - 4\bar{\lambda}_1 a_n (1 + \bar{\lambda}_2 x_n^2).$$

Xususiyl holda, (42) dan $\lambda_1 \rightarrow 0$, $\lambda_2 = 0$ da qovushoq suyuqlik uchun

$$\bar{q}(\bar{t}) = \frac{\alpha_*^2}{1-\alpha^2} \bar{v}_p'(\bar{t}) + \frac{4A_\alpha}{\text{Re}} \bar{v}_p(\bar{t}) - \frac{2}{\text{Re}} \cdot \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\beta_n \varphi_n}{\psi_{1n}} \cdot \int_0^{\bar{t}} \bar{v}_p'(\xi) \cdot e^{-x_n^2(\bar{t}-\xi)} d\xi \quad (30)$$

formulani hosil qilish mumkin. Gidrodinamik bosimni

$$\Delta p(t) = \frac{\rho U_0^2 L}{R^2} \bar{q}(\bar{t}), \quad (31)$$

formuladan, plunjerga umumiy bosimni (31) ni (1) formulaga qo'yib aniqlanadi.

Natijalar va muhokamalar. Olingan formulalar yordamida plunjerning yuqoriga ko'tarilishida neft qovushoq-elastik xususiyatlarning gidrodinamik bosimga ta'sirini o'rganish mumkin. Ulardan ko'rsatadiki, dastlabki momentda plunjer tezligi keskin o'zgarsa (lahzali tezlanish): $v_p(t) = U_0 \eta(t)$, tezlanishning ta'siri kuchli bo'lishi mumkin, chunki $v_p'(t) = U_0 \delta(t)$, bu yerda $\eta(t)$ – Hevisidning birlik funktsiyasi, $\delta(t)$ – Dirakning delta funktsiyasi. Vaqtning biror orasida plunjer tezligi o'zgarmas bo'lsin: $v_p(t) = v_m = \text{const}$, ya'ni. $\bar{v}_p(\bar{t}) = 1$. U holda (29) va (30) dan

$$\bar{q}(\bar{t}) = \frac{4A_\alpha}{\text{Re}} [c_2 + c_1(1 - e^{-c\bar{t}})] \quad \text{va} \quad \bar{q}(\bar{t}) = \frac{4A_\alpha}{\text{Re}}$$

Ko'rinadiki, tezlik o'zgarmas bo'lgan vaqt oralig'ida gidrodinamik bosim faqat qovushoq suyuqlik uchun o'zgarmas bo'lib, qovushoq-elastik suyuqlik uchun o'zgarmas bo'lmaydi.

Shtanglar va trubalarning bo'yлама tebranishlari e'tiborga olinmasa, plunjer tezligini shtang osilgan nuqtaning tezligiga teng deb qarash mumkin. Bunday holda plunjer harakatining bir sikli davri uchun uning tezligini quyidagicha olish taklif qilingan [6]:

$$v_p(t) = \frac{48v_m}{\pi^3} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{(2n-1)^3} \sin \frac{2\pi(2n-1)t}{T}, \quad (0 \leq t \leq T), \quad (32)$$

bu yerda v_m – shtang osilgan nuqtaning o‘rtacha tezligi; T – plunjer harakatining bitta sikli davri.

Suyuqlik qovushoq-elastik xossalarining plunjer ko‘tarilishi paytidagi gidrodinamik bosim o‘zgarishiga ta’sirini o‘rganish uchun parametrlarning quyidagi qiymatlarida sonli tajribalar o‘tkazildi:

$$L = 1000 \text{ m}, h = 100 \text{ m}, U_0 = v_m = 0.60 \text{ m/s}, p_0 = 10^5 \text{ Pa},$$


$$T = 20 \text{ s}, r_2 = 0.01 \text{ m}, r_1 = 0.02988 \text{ m}, R = 0.030 \text{ m}.$$

3-rasmda neft qovushoqligi va zichligining $\mu = 0.09 \text{ Pa} \cdot \text{s}$, $\rho = 920 \text{ kg/m}^3$ qiymatlari va relaksatsiya parametrlarining

$$1 - \lambda_1 = \lambda_2 = 0; \quad 2 - \lambda_1 = 1 \text{ s}; \lambda_2 = 0.5 \text{ s}; \quad 3 - \lambda_1 = 2 \text{ s}; \lambda_2 = 1 \text{ s}; \quad 4 - \lambda_1 = 3 \text{ s}; \lambda_2 = 1 \text{ s}$$

qiymatlari uchun gidrodinamik bosimning vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgarishi grafiklari keltirilgan.

Rasmdan ko‘rinadki, plunjerning ko‘tarilish tezligining oshishi jarayonida qovushoq-elastik suyuqlik uchun gidrodinamik bosim qovushoq suyuqlikka qaraganda qaraganda kichik bo‘ladi. U tezlik kamayishida, aksincha, katta bo‘ladi. Ko‘tarilishning boshida va oxirida bosim o‘zgarishining sakrashi sodir bo‘ladi. Buning sababi shuki, qaralayotgan holda boshlang‘ich tezlanish noldan farqli. Boshlang‘ich sakrashning bo‘lmasligi sharti - tezlikning dastlabki momentan boshlab silliq o‘zgarishi, ya’ni boshlang‘ich tezlanishning nolga tengligidir.



3-rasm. Neft relaksatsiya parametrlarining ba’zi qiymatlarida plunjerga bo‘lgan gidrodinamik bosimning o‘zgarishi grafiklari

$$\mu = 0.09 \text{ Pa} \cdot \text{s}, \quad \rho = 920 \text{ kg/m}^3$$


$$1 - \lambda_1 = \lambda_2 = 0; \quad 2 - \lambda_1 = 1 \text{ s}; \lambda_2 = 0.5 \text{ s};$$

$$3 - \lambda_1 = 2 \text{ s}; \lambda_2 = 1 \text{ s}; \quad 4 - \lambda_1 = 3 \text{ s}; \lambda_2 = 2 \text{ s}.$$

4-rasmlarda neft qovushoqligi va zichligining $\mu = 0.100 \text{ Pa} \cdot \text{s}$, $\rho = 900 \text{ kg/m}^3$ qiymatlarida plunjerga suyuqlik umumiy bosimining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi grafiklari keltirilgan.

